

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

Pirmanova Gavhar Nazarkulovna

**Xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali
o'quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirish
(Inliz tili darslari misolida)**

**5A 140 801-Pedagogika mutaxassisligi bo'yicha magistr akademik darajasini
olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: p.f.d. Sh. A. Abdullayeva

Rasmiy hakam, p.f.n., dots.: D.A. Axatova

NAVOIY-2010

M U N D A R I J A

KIRISH

I-BOB. XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARIDA MILLIY QADRIYATLARNING TALQIN QILINISHI

1.1. O'zbekiston Respublikasida xalq og'zaki ijodini o'rganish orqali ma'naviy qadriyatlarni tiklash masalalari

1.2. O'quvchilarga xalq og'zaki ijodi namunalari orqali milliy qadriyatlarni singdirishning nazariy asoslari

II- BOB. SINFDAN TASHQARI TARBIYAVIY TADBIRLARDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH

2.1. O'quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirish va milliy g'ururni tarbiyalash tizimi

2.2. Sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda xalq og'zaki ijodidan foydalanish printsiplari, uslub va vositalari

III-BOB. XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH TIZIMI VA UNING SAMARADORLIK DARAJASI

3.1. Tajriba-tadqiqot ishlarida milliy qadriyatlarni singdirish va uning mazmuni

3.2. Tajriba-tadqiqot ishlarining samaradorlik natijalari

UMUMIY XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy sohada amalga oshirilayotgan keng islohotlar vatan taqdiri, xalq ravnaqi, mustaqil yurtning kelajakdagi boshqaruvchilari-yangi avlod tarbiyasiga qaratilmoqda. Mustaqillikka erishgan birinchi kunimizdanoq, umuminsoniy va o'zbekona qadriyatlarni har tomonlama tiklash, ularga chuqurroq nazar tashlash uchun zamin yaratildi. Mustaqil Vatanimizga har tomonlama yetuk, mukammal, axloqiy pok, yuksak ma'naviy hislatlarga ega, iymon-e'tiqodi butun, o'z xalqi, o'z ona-Vataniga fidoiy, barkamol insonlarni tarbiyalash davlat siyosatida ustuvor masalalardan biri sifatida qarala boshladi.

Tarbiyada xalqning milliy va ma'naviy qadriyatlariga suyanish, ular orqali 5-6-sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirish-o'ta dolzarb masalalardan biridir. Chunki, bugungi kunda mafkuraviy poligonlarda yoshlar ongi va qalbi uchun kurash keskinlashgan bir paytda o'quvchilarni iloji boricha, maktab yoshidanoq vatanparvar, xalqparvar, fidoiy, Vatani, xalqi uchun jonini ayamaydigan matonatli qilib o'stirish zarur.

Xalq og'zaki ijodida komil inson g'oyasi azal-azaldan kuylanib kelingan va u xalqimizning ezgu orzusi, uning ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da halol mehnat komillikning asosiy mezoni sifatida talqin etilgan. Komil inson g'oyasi islom falsafasidan oziqlanib yanada kengroq ma'no-mazmun kasb etgan.

Xalq og'zaki ijodida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari keng qamrovli bo'lib, o'z zamirida tarbiya usullari, insoniy qadriyatlar va yurtsevarlik tarbiyasi; do'st birodarlik, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat, yaxshilik va yomonlikning ta'rifi, yaxshi va yomon so'zning oqibati, halollik, to'g'rilik, olijanoblik tarbiyasi, adolat, insof va insofsizlik, og'a-inichilik va qon-qardoshchilikning ahamiyati, botirlik va qo'rqqoqlik, odob-odobsizlik, mehmon va mehmondo'stlik kabi kategoriyalar talqin qilinadi.

O'zbek olimi M. Haydarov yozishicha: "Xalq og'zaki ijodi namunalaridagi odob-axloq, ta'lim-tarbiya borasidagi pandnomalar bag'oyat hayotiy, xalqchil va ibratlidir. Xususan an'anaviy xalq dostonlari va ertaklari, qo'shiqlar va maqollar-odobnoma darslari ekanligini, folklorning boshqa katta-kichik janrlari boshdan-oyoq pandnomaligini unutmasligimiz kerak"¹. Xalq pedagogikasining sharqona an'analari, oilaviy-maishiy yo'nalishlari, o'ziga xosligi, ommaviy bayram- sayllar, marosimlar, urf-odatlar va

¹ M.Haydarov. Xalq og'zaki ijodi na'munalarida tarbiya masalalari.-T.: Fan, 2004.-B.-12.

udumlarda ifodalanishi o'sib kelayotgan yosh avlod tomonidan o'rganilishi lozim bo'lgan masalalar sirasiga kiradi. Folklorshunos olim S. Turayev ta'kidlashicha: "Xalq og'zaki ijodida hayotning, tafakkurning, odob-axloq, ta'lim-tarbiyaning hamma jabhasini, barcha muammolarini qamrab olishi bilan xarakterlanadi"¹. Darhaqiqat, xalq og'zaki ijodida inson qadr-qimmatini va sha'nini ulug'lovchi, ma'naviy kamolotini belgilovchi omillar, iymon-e'tiqodining butunligi, vatanparvarlik, do'st-birodarlik, yaxshilik, ezgulik, ahillik sahifalari rang-barangdir. Bu sahifalarning har biri yosh avlod uchun odobnoma, ibratnoma deb baholanishga tamomila haqlidir.

Jamiyatimizdagi yoshlarni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashda tarbiyaning vazifalari keng va ko'p qirrali ekanligini unutmasligimiz kerak. Demak, qanday odamni tarbiya qilish darkor, tarbiya natijasida inson qanday bo'lishi kerak, degan savollarni avvaldan tasavvur etish zarur. Bunda **xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarni tarkib toptirish** katta ahamiyat kasb etadi. Bu jamiyatning komil insonni tarbiyalashdek maqsadiga mos kelishi kerak.

Xalq og'zaki ijodida keng talqin qilinadigan **milliy qadriyatlar**-insonparvarlik, bag'rikenglik, vatanparvarlik, mehmondo'stlik, ahillik, to'g'riso'zlik va boshqalar o'zbek xalqi qadriyatlarining nozik kurtaklari bo'lib hisoblanadi. Ularni xalqimiz asrlar osha avaylab- asrab kelmoqda. Mamlakatimizning kuch-qudrati manbai ham uning milliy qadriyatlarga sodiqligidir. Insonparvarlik - bu o'zbek halqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir.

«Xalqimizning ma'naviy merosini, ruhini mustahkamlash va rivojlantirish - O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaxo mevaki, u bizning qadimiy va novqiron xalqimiz qalbida butun va insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevishtuyg'usi bilan birgalikda yetilgan. Bizning ma'naviyatimiz asrlar davomida million-million kishilar taqdiri asosida shakllangan. Ma'naviyat - insonning, xalqning, jamiyatning va davlatning kuch-qudratidir»¹. Ziyolilar va o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri ham o'tmish ma'naviy merosimizni yosh avlodga yetkazish va buni yetkazishning yanada samarali usullarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Har bir xalqning tarixi shu xalqdan yetishib chiqqan buyuk siymolar, mard qaxramonlar va fidoyi insonlar tarixi asosida bitiladi. Xalqimizning Shiroq va To'maris, Spitamen va Muqanna, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo kabi mard farzandlari-buyuk g'oya sohiblaridir.

¹ S.To'rayev. Folklorshunoslik: udumlar, qadriyatlar, marosimlar.-T.: Mehnat, 2005.-B.-56.
Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yuli .T. O'zbekiston, 1992 70-71 bet.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash – pedagogikada dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Insonning o'zi va o'z oilasining baxt-saodati yo'lida mehnat qilishga shaxsan tayyor ekanligi uning ichki imkoniyatlarini tashkil qiladi. Shaxs imkoniyatlari juda chuqur asoslarga egadir.

Milliy qadriyatlar, o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad va muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan, asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalari tizimidir.

«Milliy qadriyatlar faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masalalar, jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishishi uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan. U har bir kishining oilasi, jamiyat, el-yurt oldidagi burch va ma'suliyatini qay darajada ado etayotganini belgilaydigan ma'naviy mezondir»².

Milliy qadriyatlar milliy istiqlol mafkuramiz bilan hamohang bo'lib, uning bosh g'oyasi - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Uning asosiy g'oyalari qo'yidagilar kiradi: Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik.

Milliy istiqlol mafkuramizning asosiy g'oyalari biri komil inson g'oyasi bo'lib, u ham milliy ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzotga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g'oyadir.

Tadqiqot maqsadi: Xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali 5-6- sinf o'quvchilariga milliy qadriyatlarni singdirish.

Tadqiqot ob'ekti: Xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali **5-6-** sinf o'quvchilariga milliy qadriyatlarni singdirish jarayoni deb belgilanadi.

Tadqiqot predmeti: Xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirish yo'llari, shakllari, metodlari va vositalari.

Ilmiy tadqiqotning maqsadi va vazifalari qo'yidagi farazni ilgari surishga asos bo'ladi: Xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali o'quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirish qo'yidagi pedagogik vazifalar amalga oshirilganda ijobiy kechadi:

-birinchidan, 5-6- sinf o'quvchilariga milliy qadriyatlarni singdirish mezonlari ishlab chiqilganda;

² Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –Тошкент: “Yangi asr avlodi”, 2001, 131-b.

- ikkinchidan, 5-6- sinf o'quvchilari uchun yaxlit uzluksiz milliy tarbiya tizimini ta'minlaydigan metodik majmualar ishlab chiqilganda;
- uchinchidan, g'oyaviy tarbiyaga molik suhbatlar, kechalar uyushtirilganda;
- to'rtinchidan 5-6-sinf o'quvchilar qiziqishlari inobatga olingan holda to'garaklarga jalb qilinganlarida;
- beshinchidan, xalq og'zaki ijodini chuqur o'rganish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablarida turli tarbiyaviy tadbirlar tizimi ishlab chiqilganda;
- oltinchidan, o'quvchilarda milliy qadriyatlarning shakllanganlik darajasi o'rganilganda, maktab va oilaning hamkorligi rivojlantirilganda.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi Xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali milliy urf-odatlar, milliy qadriyatlarni shakllantirish maxsus ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o'rganilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. Tadqiqot mobaynida amalga oshirilgan maxsus adabiyotlar, Prezidentimiz Islom Karimov asarlarining sharxi va olingan natijalar asosida ilgari surilgan nazariy g'oyalar, chiqarilgan ilmiy xulosalar **xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirish** borasidagi metodikaning ayrim tomonlarini boyitishga xizmat qiladi. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari ishlab chiqilganligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Ilmiy tadqiqot natijalaridan va ularga asoslangan holda ilgari surilgan xulosalar, tavsiyalardan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari sinfdan tashqari tadbirlarni tashkillashtirganlarida, ota-onalar o'z bolalarini ma'naviy rivojlantirganlarida, ularda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini, axloqiy xislatlarni shakllantirish jarayonida foydalanishlari mumkin.

Tadqiqotning metodologik asosini Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan va asoslab berilgan milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasi to'g'risidagi qarashlari, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (2008), "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (1997), "Umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standartlari" (2003), Xukumatimiz tomonidan chiqarilgan bo'yruq va farmoyishlar, ilg'or pedagogik tajribalar (D. Alimova, M. Quronov, A. Erkayev, E.G'oziyev, R. Toshimov), ta'limga tizimli yondashuv (V. Karimova, A. Umarov, M. Bekmurodov, Q. Ro'zmatzoda), ma'rifatli va ziyoli, e'tiqodi kuchli shaxs tarbiyasi ta'limoti (Abdulla Avloniy, Ashurali Zohiriy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy), o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasi va rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi (Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abu Nosir Farobiy, I.G. Pestalotssi, I. F. Gerbart, J. Dyui, V.V. Rubsov, L. V. Zankov), tarbiyaviy ta'lim Konsepsiyasi (N. Leontev, L. A. Karpenko, G. K. Lozanov, G. A.

Kitaygorodskaya, O. Musurmonova, R. Inog'omov, K. Toshmurodov) xizmat qildi. Shuningdek, tadqiqotda Sharq mutafakkirlarining ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid ta'limotlari, xalq og'zaki ijodiyoti, xalq pedagogikasidagi tarbiya masalalariga bag'ishlangan hikmatli g'oyalariga asoslaniladi.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda pedagogik-psixologik (suxbat, kuzatish, xalq og'zaki ijodini o'rganish, maktab o'quvchilarining ma'naviy kamolotini tashxis qilish, oilalardagi muhitni aniqlash, sinfdagi mikromuhitlarni o'rganish va h.k.; sotsiologik (so'rovnomalar, testlar), eksperiment-tajriba- ma'naviy kamolotni ta'minlovchi tizimlardan foydalanildi.

Tadqiqot mobaynida biz Navoiy viloyatining Karmana tumanidagi № 23, № 27 va Navoiy shahpidagi 11, 17-maktablarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali 5-6-sinf o'quvchilariga milliy qadriyatlarni singdiradigan tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish ishlari bilan keng shug'ullanishga to'g'ri keldi.

Dissertatsiyaning taqdimoti: Ushbu dissertatsiya Navoiy Dalat pedagogika institutining pedagogika kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bo'yicha amalga oshirildi va institut hamda Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar o'qish orqali keng jamoatchilik ommasiga taqdim qilindi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi:

Tadqiqot mavzusi bo'yicha muallifning 5 ta ilmiy- uslubiy maqolalari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi: tadqiqot ishi kirish, 2 bob, 9 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 120 sahifani tashkil etadi.

I-BOB. XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARIDA MILLIY QADRIYATLARNING TALQIN QILINISHI

1.1. O'zbekiston Respublikasida xalq og'zaki ijodini o'rganish orqali ma'naviy qadriyatlarni tiklash masalalari

Istiqlol mafkurasi bugungi kunda Respublikamizda yashovchi har bir fuqaroning har tomonlama kamol topishiga keng imkoniyatlar yaratib berdi. Necha asrlar mobaynida mudrab yotgan ongimiz uyg'ondi, milliy merosimizdan ozuqa olishga zamin yaratildi, uning eng yaxshi sahifalarini o'rganishga imkoniyat ochib berildi. Xalq odobnomasi va ibratnomasining teran, boy, serma'no, mazmunli sohasi-xalq og'zaki ijodi va xalq pedagogikasi an'analari-insonni har tomonlama tarbiyalash, kamolga yetkazish, ma'naviyatimizning ustivor, iymon-e'tiqodlarimizning butun bo'lishini, qadriyatlarimizning qadrlanish garovidir.

O'quvchilarni tarbiyalash jarayonida xalq og'zaki ijodining qimmatli xazinasidan foydalanish yo'llarini, metodikasini ishlab chiqish pedagogikadagi dolzarb vazifalar qatorida turibdi.

Xalq og'zaki ijodining yorqin sahifalari- "Alpomish", Guro'g'li", "Barchinoy" kabi xalq tomonidan yaratilgan dostonlar, qo'shiqlar, aytishuvlar, ulanlar, maqollar, topishmoqlar, ertaklar o'quvchilarni tarbiyalashda kuchli manba bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, ulardagi milliy qadriyatlarning ulug'lanishi, milliy iftixor hissining mavjudligi bolalarga kuchli tarbiyaviy ta'sir

ko'rsatadi. Biroq, shu narsani ta'kidlash joizki, 5-6-sinf o'quvchilariga xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalanish orqali ularga milliy qadriyatlarni singdirish masalasi to'laqonli o'rganilayapti.

Xalq og'zaki ijodi asarlari to'plovchilarini ham birinchi navbatda alla qo'shiqlari qiziqtirib kelgan. Folklorshunos, lingvist, psixolog, antropolog va etnograflarning qator tadqiqotlari ana shu masalaga bag'ishlangan. Bu qiziqish bora-bora o'quvchilar folklorshunosligiga ham tasir etgan. Keyingi paytlarda o'lkashunoslikka bag'ishlangan kitoblarda o'quvchilar o'rganishi lozim bo'lgan xalq og'zaki ijodiga ham o'rin ajratildi. Rus folkloristikasida o'quvchilar og'zaki ijodi materiallarini qardosh xalqlar o'quvchilar og'zaki ijodi bilan qiyoslab o'rganish bo'yicha ham qator ibratli ishlar qilindi. Ammo bugungi kunga qadar ingliz xalqi tomonidan yaratilgan folklor va o'zbek xalq ijodini qiyosiy o'rganish sohasida hali tadqiqotlar nihoyatda kam. Maktabda o'quvchilar og'zaki ijodi materiallarini o'rganishning muvaffaqiyati eng avvalo ularning o'quv dasturlari va darsliklariga, sinfdan tashqari ishlar va rejalariga, mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxatiga kiritilishiga bog'liqdir.

O'zbek olimi, professor X. Zarif xalq og'zaki ijodi haqida nazariy va amaliy malumotlar beradigan qo'llanma yaratib, unda xalq og'zaki ijodining eng nodir namunalari keltirgan. Ularda «Allalar», «Fasl qo'shiqlari», «Chittigul», «Oftob chiqdi», «Boychechak», «Laylak keldi», «Tez aytish», topishmoq va ertaklar joy olgan.

Taniqli o'zbek folklorshunos olimlari O. Safarov, R. Negmatullayev, A. Bobojonovlar o'zbek folklorshunosligiga oid qator tadqiqot ishlari olib borishdi. Bugungi kunda xalq og'zaki ijodini o'rganish, ularni to'plash ishlari quyidagi manbalar asosida amalga oshirilmoqda:

- O'zbek xalqining boy madaniyati manbai bo'lmish xalq og'zaki ijodi materiallarini zamonaviy ruhda talqin qilinishi;

- Prezidentimiz, hukumatimizning xalqning boy ma'naviy madaniyatining tarixini o'rganish to'g'risidagi metodologiyasiga tayanish;

- ilmiy-nazariy manbalar, xalq og'zaki ijodining tarixiy turlari va janr xususiyatlarini aniqlash;

- Ilg'or rus folklorshunosligining boy tajribalari va chiqargan ilmiy xulosalari;

- O'zbek xalqi orasidan yetishib chiqqan baxshilarning termalari;

G.S.Vinogradov o'zining "O'quvchilar ogzaki ijodi va turmushi" kitobida tadqiqotchilarning dasturini belgilab beradi. Bu aslida dasturgina bo'lib qolmay, balki kichikroq tadqiqot ishidir. Unda muallif xalq og'zaki ijodi turlarini, janr va xususiyatlarini ta'riflaydi. U o'quvchilar yilnomasini, o'quvchilarda san'atga qiziqishining boshlanishi, ularning ijtimoiy va

xuquqiy xayoti masalalariga, shuningdek o'yinlar va o'yinchoqlarning ahamiyati masalalariga ham to'xtalib o'tadi. Muallif xalq og'zaki ijodining quyidagi turlarini alohida ajratadi:

- taqvimiy xalq og'zaki ijodi;
- qo'shiqlar, hazil-mutoyibalar;
- tilsimlar, afsonaviy sherlar;
- so'z o'yinlari, tez aytish, topishmoqlar;
- laparblar, ertaklar;

- Alla qo'shiqlari va boshqalar¹. Muallif ayniqsa o'quvchilar o'yinlariga etibor berib, ularni to'plash dasturini tavsiya etadi. Bu borada olim shunday yozadi: "O'quvchilarning qiziqishini bilish kerak, ularning tashvishlari, intilishlaridan xabardor bo'lish kerak. Toki o'quvchilar hayotining daraxt g'urasi singari ekanligini anglab olish zarur". G.S.Vinogradovning "Ustnoye narodnoye tvorchestvo» kitobida xalq og'zaki ijodining boshqa bir sohasiga, muallif tabiri bilan aytganda o'quvchilarning satirik lirikasiga bag'ishlangan. Bunga u pichinglar, kinoyalar va boshqalarni kiritadi. Muallif kitobxonni bu janrning kelib chiqishi tarixi bilan tanishtiradi.

G.S.Vinogradov xalq og'zaki ijodi masalalarini ilmiy jihatdan ishlab chiqishga asos solgan. U yaratgan metodika mana shu sohadagi boshqa masalalarni ishlab chiqishning yo'llarini belgilab bergan. J.N.Melnikovning "Sibirlik rus o'quvchilar og'zaki ijodi", N.Isanbayning "Tatar xalq o'quvchilar og'zaki ijodi", B.Shermumammedovning "Tojik o'quvchilar poeziyasi", G'. Jahongirovning "O'zbek bolalar folklori" mavzularidagi ilmiy tadqiqotlari mazkur sohadagi jiddiy va salmoqli ishlardir. Lekin mana shu ishlarning o'zi o'quvchilar og'zaki ijodini o'rganish uchun yetarli emas. Chunki o'quvchilar og'zaki ijodining hajmi va ko'lami nihoyatda keng. Shuningdek uning materiallari ham albatta turli yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lishi lozim.

K.D.Ushinskiy o'zining ko'p yillik pedagoglik tajribasida, xususan, 1867 yilda bosilib chiqqan "Ona tili" kitobida o'quvchilar og'zaki ijodi namunalaridan darsliklarga didaktik material sifatida kiritish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan edi. Ayni bu ishni davrning manaviy ehtiyojidan kelib chiqib, o'zbek pedagoglaridan H.H.Niyoziy, S.Ayniy, Abdulla Avloniyilar asoslab bergan edilar. Ular o'zlari yaratgan darsliklarda o'quvchilar og'zaki ijodi materiallariga alohida etibor bergan edi.

O'quvchilarga xalq og'zaki poetik ijodi namunalarini o'qishni o'rgatish va bu ishga rahbarlik qilish, avvalo adabiyot o'qituvchisidan, qolaversa, har bir fan o'qituvchisidan juda katta pedagogik mahorat va qobiliyatni talab qiladi. Chunki madaniy o'qish malakalarini egallash, xalq kitobxonlarining tilini tushunish, o'quvchini ularning o'ziga xos tili va nutq

¹ Виноградов В. Фольклор –устное народное творчество. Культура народа, её специфика и значение.-М.: Знание,1991.-С.89.

qoidalarini bilan tanishtirish, unda xalq og'zaki ijodi janrlarini chuqur tahlil qilish malakasini tarkib toptirish va shu asosda milliy qadriyatlarni ularga singdirish muhim pedagogik muammodir. O'quvchilarda xalq og'zaki ijodiga ijobiy munosabatni vujudga keltirish uchun avvalo maktabning tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi, o'qituvchilar, kutubxonachilar ana shu sohada tegishli tayyorgarlikka ega bo'lishlari lozim. Chunki o'quvchilar uchun eng avvalo zarur kitoblarni tavsiya etish, ularning mohiyati, o'ziga xos jihatlari, mazmuni, ijobiy va salbiy obrazlarini atroflicha bilish kerak. Shundagina yoshlarda xalq og'zaki ijodi namunalari aks ettirilgan kitoblari kitob tanlashga, uni mustaqil o'qishga va tahlil qilishga qiziqish uyg'otish mumkin. Aks holda esa o'quvchilarning qiziqishini so'ndirib qo'yish hech gap emas. Shuning uchun xalq og'zaki ijodi asarlarini sinfdan tashqari o'qishni tashkil etish va boshqarishi g'oyat muhim pedagogik jarayon hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi asarlarini tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, psixologik sifatlarini, o'ziga xos xususiyatlari bilan birga, og'zaki ijodning har bir janriga, tomonlariga, undagi personajlar, obrazlarning fel atvorlarini, xalq ertaklaridagi inson bilan, tabiat o'rtasidagi bog'lanishlarni ham hisobga olish zarur. Xalq og'zaki ijodi namunalari bo'yicha o'tkaziladigan darslar va sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar tanlangan har bir asar va unda olg'a surilgan pedagogik g'oya o'quvchining ilmiy dunyoqarashini o'stiradigan, uni etiqod va g'oyalarga undaydigan yo'sinda tashkil qilinishi kerak. Unda xalq og'zaki ijodi materiallari yuzasidan tashkil etiladigan sinfdan tashqari shakl va metodlari, ularni o'tkazishda maqsad, tadbirning vaqti aniq belgilanadi. Bu reja maktab pedagoglari kengashida atroflicha muhokama qilinib tasdiqlanadi. Muhokamada xalq og'zaki ijodiga doir materiallar, xalq baxshilari, xalq og'zaki ijodini o'rganish ekspeditsiyalarining namunalari, maktab kutubxonachisining qardosh xalqlar og'zaki ijodi asarlariga oid namunalari tavsiyasi, baynalmilal do'stlik klubi, to'plangan xalq og'zaki ijodi materiallaridan keng foydalanishga alohida etibor beriladi. Eng muhim tarbiyaviy ishlarni xalq og'zaki ijodi asarlari asosida tashkil etish maxalliy va milliy og'zaki ijod etnografik ansambllarning dasturlari, ularda rejalashtirilgan eshittirishlar mazkur tarbiyaviy ish dasturlarida keng o'rin olishi lozim. Xalq og'zaki ijodi bo'yicha sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda maktabdagi tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi alohida rol o'ynaydi. U mana shu ishlarni rejalashtirganda ularning dars mashg'ulotlari bilan uzviy bog'lanishni nazarda tutib o'quvchilar darsda olgan bilim va ko'nikmalari mustahkamlashga doir tadbirlarga alohida etibor beradi. Maktabda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, boshqarish va ularni davr talabi darajasiga ko'tarishda tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi g'oyat masuliyatli vazifalarni bajaradi. Qayta qurish davrida yangi tipdagi shaxsni har tomonlama kamol taptirishda inson omili masalasiga jiddiy diqqat-etibor bilan yondashish zarur.

Xalq og'zaki ijodi durdonalaridagi ilg'or pedagogik g'oyalarni hozirgi zamon talim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish va ulardan foydalanishning xilma-xil shakllari va metodlarini ishlab chiqish orqali eng muhim pedagogik muammoni hal etishga hissa qushish uning ijodiy tashkilotchilik istedodining belgisidir. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan talim-tarbiya jarayoni uchun didaktik material tanlashda uning g'oyaviy-siyosiy tomoniga, o'z mazmunida pedagogik va psixologik g'oyalarni aks ettirishga insoniy fazilatlarni baynalmilalchilik, xalqlararo do'stlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, rostguylik, tug'rilik, halollik, vijdonlilik kabi axloqiy tuyg'ularni ifodalagan janrlarga alohida e'tibor berish zarur.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodida milliy urf-odatlar o'z aksini topadi.

Xalq og'zaki ijodida keng talqin qilinadigan **milliy urf-odatlar** deganda- xalqimizning ming asrlar mobaynida avloddan-avlodga saqlab, yetkazib kelinayotgan marosimlari, udumlari, rasm-rusumlari tushuniladi. Bular: alla, ulan aytish, bolani beshikka belash, kupkari, sunnat qilish, Navro'z, Mexrjon bayramlarini o'tkazish va boshqalradir.

Milliy qadriyatlar: adolatparvarlik, fidoiylik, sabr-qanoat, vatanparvarlik kabilardir.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng jamiyatimizning barcha sohalari qatori ma'naviy-mafkuraviy hayotimizda ham ulkan o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi yaratildi. Chunki o'z kelajagi haqida qayg'uradigan millat hech qachon milliy g'oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi.

Milliy mafkuramiz xalqimizning maqsad-muddaolarini ifodalaydi, tarix sinovlaridan o'tishda uning ruhini ko'tarib, suyanch va tayanch bo'ladi, shu millat, shu jamiyat duch keladigan ko'plab hayotiy va ma'naviy muammolarga javob izlaydi.

Milliy istiqlol mafkuramiz ko'p millatli O'zbekiston xalqining ezgu g'oya - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-intilishlarini aks ettiradi. Ta'lim-tarbiya muassasalari, oila, mahalla qo'mitalari, ijtimoiy institutlarning asosiy vazifasi - Milliy istiqlol g'oyamizni yurtimizda yashayotgan barcha kishilarning ma'naviy boyligiga, dunyoqarashining negiziga aylanishiga ko'maklashish, uning mohiyatini keng jamoatchilikka har tomonlama tushuntirishdan iborat.

Tajriba-tadqiqot mobaynida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasidan unumli foydalanish talab etildi.

Xalq og'zaki ijodida ko'p kuylangan Qizjibekdagi bosh qahramonlar, Alpomishning shijoati, Jaloliddin Manguberdining matonati Markaziy Osiyoda va dunyo xalqlari uchun namuna sifatidagi yorqin misollardir.

Xalq og'zaki ijodi - **folklor** hamma zamonlarda ham ijod sarchashmasi hisoblanib keladi.

“Folklor” ingliz tilidan o'lingan bo'lib, “xalq ijodiyoti”, degan ma'noni bildiradi. Fanga 1872 yilda kirib kelgan.

Insoniyat alla, qo'shiqlar, afsonalar, ertak va dostonlarda o'zining yuksak orzu-umidlari, zavq-shavqi-yu kurashlarini ifodalagan. Xalq og'zaki ijodi o'zining mazmunan rang-barangligi, yuksak g'oyalar bilan yo'g'rilganligi, xalq turmushi, mehnati, xullas, xalq hayotining barcha tomonlari bilan uzviy bog'liqligi bilan ham g'oyatda e'tiborlidir.

Bolalar folklori ko'pincha kattalar tomonidan ijod qilinadi (alla), ba'zi hollarda bolalar o'z o'yinchoqlari asosida o'zlari ham alla, qo'shiq va ovitmachoqlar to'qiydilar. Bularning hammasi bir bo'lib faqat yaxshi tarbiyani targ'ib qiladi. Bolalar xalq og'zaki ijodining pedagogika bilan bog'lanishi alladan boshlanadi.

Malumki, mana shunday fazilatlar insoniyat tarixining har bir davriga xos avlodlarning asosiy sifatleri bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Hozirgi qayta qurish sharoitida barcha jabhalarda mazkur sifatlar manaviy shiordan amaliy harakatga aylanib bormoqda. Shu boisdan ham maktabdagi har bir sinf rahbari, fan o'qituvchisi, pioner tashkiloti o'zlarining kundalik faoliyatlariga xalq og'zaki ijodi materiallarida mujassamlashgan umuminsoniy fazilatlardan tarbiyaviy tadbirlarning har bir bosqichida unumli foydalanishlari va bunda maktab tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi bosh-qosh bo'lishi lozim. Ma'lumki, millat o'z tarixini unutsa, uning milliy pedagogikasi ham o'z zaminidan ajralib qolishi tabiiy xoldir.

Xalq pedagogikasi deganda xalq og'zaki ijodiyotining barcha janrlarda aks ettirilgan tarbiya borasidagi qarashlar, g'oya, uroda, rasm hamda an'analar yig'indisi tushuniladi. Demak, xalq pedagogikasining asosiy manbai folklordir. Xuddi shu jihatdan xalq pedagogikasi mumtoz pedagogikadan farq qiladi. Folklor hamisha buyuk mutafakkirlarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Xalq pedagogikasi qamrovi keng bo'lib, uni muayyan xalq tarixi, falsafasi, psixologiyasi, etnografiyasi hamda xalq tabobatidan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi. Folklor xalq pedagogikasini, ya'ni xalq ommasining tarbiya borasidagi qarashlari, g'oya, urf-odat hamda an'analar yig'indisini ifodalaydi. Shuningdek, tarbiyani amalga oshirishda qo'llanib kelingan usul, vosita, ko'nikma va malakalari birligini o'z ichiga oladi.

Bola tarbiyasi borasidagi an'analar o'zbek klassik adabiyotida o'z aksini topa borgan. Jumladan, IX-XII asr allomalaridan Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Nosir Xisravning "Saodatnoma", "Rushnoma", Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u-bilig", Maxmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul-haqoyiq", Kaykovusning "Qobusnoma" kabi asarlari jahon olimlarining e'tiborini o'ziga tortgan va ulardagi pedagogik g'oyalar salmoqli o'rinni egallaydi.

Hozirgacha nashr qilingan xalq og'zaki ijodi namunalari va folklor materiallarida bevosita o'quvchilar (yoshlar) ishtirok qilmagan yoki qahramonning yoshligi tasvirlanmay qolgan asar kam uchraydi. O'quvchilar bevosita ishtirok qilgan xalq ijodi namunalari esa, qay darajada bo'lmasin, xalq pedagogikasining tarbiyaviy an'analari chetlab o'tilmaydi. Demak, xalq og'zaki ijodi qadim zamonlardan buyon jahon xalqlarining, shu jumladan, o'zbek xalq pedagogikasining ham yagona vositasi bo'lib kelgan va u bizning zamonamizda ham o'z qimmatini yuqotmagan.

O'zbek xalq pedagogikasi bola ko'rish, tarbiya jarayoni va uning jamiyatda tutgan o'rni, xalq pedagogikasida tarbiyaning tarkibiy asoslari (aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat va nafosat tarbiyasi), milliy tarbiyani amalga oshirish usul va vositalari, yoshlarni dastlabki oilaviy odob qoidalarga odatlantirish va uni amalga oshirish yo'llari, yoshlarni dastlabki oilaviy dastyorlik mehnatiga odatlantirish, uni amalga oshirishda foydalaniladigan usul va vositalar, hali pedagogikasida maktab va hunar ta'limi, shuningdek boshqa shu kabi tarbiyaviy tadbirlarni qamrab oladi. Bularning hammasi xalq og'zaki ijodida aks etib kelgan. Ilmiy pedagogika o'z navbatida mana shu omillar zaminida shakllangan.

Ilmiy pedagogikaning bosh maqsadi va vazifasi har jihatdan to'la kamolotga erishgan, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishga qaratiladi. Barkamollik esa yoshlarni aqliy, jismoniy, axloqiy, mehnat hamda nafosat jihatdan yetuklikni o'z ichiga qamrab oladi. Ilmiy pedagogika xalq pedagogikasi bilan chambarchas bog'liqdir. Xalq pedagogikasi esa xalq og'zaki ijodida namoyon bo'lishini alohida ta'kidlash lozim. Ma'lum ma'noda o'zbek xalq og'zaki ijodi to'g'ridan-to'g'ri bola tarbiyasiga ta'sir etish vositasi bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

“O'zbek xalq pedagogikasi” qamrovi nihoyatda keng, bog'oyat serqirra va serjilo tushuncha bo'lib, u shu xalq paydo bo'lgan butun davrni o'z ichiga oladi.

Xalq donishmandligi va odobnomasiining bu nodir sohasi ijtimoiy va maishiy-axloqiy hayotning barcha tomonlarini, xalq og'zaki, qadrshunosligi va marosimshunosligining yetakchi yo'nalishlarini, diniy-axloqiy ta'limotni qamrab olishi bilan xarakterlanadi. U xalqimizning asrlar davomida to'plangan boy tajribalarini, ijtimoiy – siyosiy, axloqiy, falsafiy, ma'rifiy, estetik, ma'naviy hamda jismoniy yetuklik borasidagi qarashlarini, tajriba-xulosalarini lo'nda, ammo bag'oyat teran, donishmandnamo tarzda ifodalaydi. Ilk bor yaratilayotgan “O'zbek xalq pedagogikasida” dono xalqimizning ta'lim-tarbiya, axloq, odob, inson qadriyatlarini va uning ma'naviy ustivorligi, iymon-e'tiqodi butunligi sohasidagi dunyoqarashi, amaliy faoliyati, usul-metodlari, an'analari tabarruk islomning odob-axloq, ilmu-fan haqidagi ta'limotiga bog'liq holda, muqaddas qur'oni

Karim va payg'ambarimiz Muhammad Rasullohning muborak hadisi shariflariga suyangan holda yoritish mo'ljallangan.

Ma'lumki, xalqning pedagogik qarashlari o'zoq asrlar davomida shakllangan va ular bizga alohida qo'llanma dastur yoxud darsliklar shaklida yetib kelmay, balki asosan xalq og'zaki ijodiga kiruvchi turli janrlardagi asarlar, elshunoslik, qadrshunoslik, udumshunosliklar qatida saqlab qolingan hamda Ollohning so'zi bilan bo'lgan qur'oni karim va payg'ambarimizning hadislarida o'z ifodasini topgan. Demak, xalq pedagogikasi hozirgacha yashovchanligi asosan og'zaki tarzda bo'lib, u har bir avlod unga o'z tajribasini, qarashlarini, fazilatlarini qo'shgan holda bizgacha yetib kelgan.

Bugungi kunda esa shu o'zoq asrlar davomida ta'lim-tarbiya qo'llanmasi, vositasi bo'lib kelgan xalqning pedagogik qarashlarini to'plash, o'rganish va chop etish vazifasi to'ribdiki, bu vazifani bajarish yuqolish arafasiga kelib qolgan milliy qadriyatlarimiz, axloqimiz, urf-odat, rasm-rusumlarimizni, udumlarimizni, an'analarmizni asrab qolish va tiklash uchun nihoyatda zarurdir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xalq nazdida, inson ona qornidan yaxshi yo yomon bo'lib to'g'ilmaydi - u birday to'g'iladi. Yaxshi-yomonga aylanishi tarbiyadan, dastavval ota-ona, oila, mahalla-kuy, qishloq-ovul, qolaversa, jamiyat-tuzumdandir. Bunda ajdodlar qoldirgan ota meros-oilaviy pedagogika, xalq pedagogikasi, shuningdek udumshunoslik, qadrshunoslik, elshunoslik an'analari, jamiyatning bu sohadagi sa'y-harakatlari, hal qiluvchi o'rin tutadi. Xalq ta'kidlashicha, bola boshdan to'g'ri, xaqqoniy tarbiyalansa-yomon kishiga aylanadi. Zero, "ko'chat boshdan, bola yoshdan" maqoliga amal qilish xalq an'anaviy pedagogikasining bosh yo'nalishidir. Shu boisdan xalq pedagogikasida tarbiyaning mayda-chuydasi, ya'ni birlamchi-ikkilamchisi bo'lmaydi: hamma narsa hisobga olinishi, hech bir soha chetda qolmasligi, ayni choqda tarbiyaning nihoyatda nozik, injiq, murkkab tomonlari e'tiborga olingan holda yetti o'lchab bir kesishga amal qilinadi. Xarakterlisi yana shundaki, xalq tarbiyada kecha, bugun va ertani o'ylab ish tutadi, ya'ni tarbiyani o'tmishni unutmaslik, bugunni qadriga yetishlik, kelajakka umid asnosida olib boradi.

Xalq bisotidagi eng yaxshi tabarruk so'zlar-duo olqishlar ham tarbiyaga qaratiladi. Darvoqe, xalq an'anaviy pedagogikasining yaxshi so'z, duo-olqishning ta'sir kuchi, tarbiyaviy ahamiyati, inson ma'naviy ustivorligi, iymon-e'tiqod butunligi, qisqasi kishilarning har tomonlama mukammal kamoloti borasida tutgan o'rni va rolga alohida ahamiyat beriladi..

Shunday qilib, o'zbek xalq pedagogikasi turkiy xalqlar-ota bobolarimiz o'zoq moziyda yaratgan va ko'z qorachig'iday asrab-avaylab, aqlab kelgan ota meros, Sharq

xalqlarining boy va betakror odobnoma va odatnomasi, xalq pedagogikasidagi eng yaxshi namunalar, allomalaru adabiyot va folklor ijrochilarining bu boradagi sa'y-harakatlari, yaratgan asrlari bilan qo'shilgan holda shakllanganligi, rivojlanganligi va boyib borganligini e'tirof etish birdan-bir to'g'ri yo'ldir.

Xalq pedagogikasining ijodkori va shu asosda avlod-ajdodlarimizni barkamol kishilar qilib tarbiyalab kelgan birinchi va to'ng'ich pedagog- o'qituvchi xalqdir. Biroq, afsuski, sho'ro tuzumi davrida qariyb bir asr davomida o'zbek xalqi o'sha madaniyatning ajralmas qismi bo'lmish xalq pedagogikasidan ajralib qoldi.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohasida hukm surayotgan tanglik maorif sohasiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu tanglik jumhuriyatimiz xalqlarining tarixan qaror topgan umumbashariy qadriyatlaridan, bola tarbiyasi borasidagi pedagogik qarashlar, g'oya, urf-odat, rasm ham an'analardan ajrab qolishligi bilan bog'liqdir.

Dissertatsiya saxifalarida 5-6-sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodini o'rganish asosida milliy qadriyatlarni shakllantirish, milliy g'ururni tarbiyalash yo'l va usullari to'g'risidagi masalalarga alohida e'tibor berishga harakat qildik va shu jihatdan xalq og'zaki ijodining ko'rinishlaridan ayrimlarini ushbu ishda keltirishni joiz deb topdik.

ALLA

Xalq og'zaki ijodining eng rivojlangan jarayonlaridan biri alladir. Alla bolalar beshikdaligida, hali tili chiqmasidanoq aytiladi. Boshqacha aytganda, beshik qo'shig'i bolaga ona suti bilan kiradi.

Allalar poetik jihatdan ham, onalarning ichki tuyg'ulari bayoni sifatida ham xalq ijodining bo'lak turlaridan ajralib turadi. Ularni bolaning onasi yoki tarbiyachisi aytadi (ona, enaga, keksa onalar, ba'zan otalar tomonidan ham aytiladi). Allalar bolani ovitish, uxlatish uchun mayin ohangda ijro qilinadi.

Onaning yurakdan aytgan quyidagi allasida bola obrazi qisqa, ammo chuqur mazmunli so'zlar yordamida ifodalanadi:

Alla bolam, alla.

Jonim bolam, alla

Ikki ko'zim alla,

Shirin so'zim alla.

Alla bolam, baxti bor,

Har narsaning vaqti bor,

Jonim bolam, alla,
Shirin bolam, alla,
Ikki ko'zim alla.

Allada yaxshi tarbiya ko'rgan bola jamoat o'rtasida, to'y-tomoshalarda ota-onaning obro'yi, uning shuhrati sifatida ta'riflanadi. Shuningdek, bolaning to'g'ri tarbiyalanishida ota-onaning roli katta ekanligi ko'rsatiladi. Bola yoqimli qo'shiqlar ohangini osongina o'rganib oladi. Alla bolaga zavq bag'ishlaydi, ma'naviy-tarbiyaviy ozuqa beradi.

Yot, bolam, uxla, qo'zim,
Uylarda o'chdi chiroq.
Uxlar asalarilar,
Uxlar baliqlar tinchroq.
Ko'kda oy yarqiraydi,
Derazadan qaraydi.
Ko'zlaringni yumgin qo'zim,
Yot, quvonchim, qunduzim,
Alla, alla.

Suv sepgandek, uylar tinch
Qorong'i hujralar tinch.
Hech darvoza tiq etmas,
Sichqon uxlar, miq etmas.
Kimdir oh tortsa, unda
Ne ishimiz bor unda?
Ko'zlaring yumgin, qo'zim,
Ovinchog'im, qunduzim!
Alla, alla.
Qushcham g'amsiz yashaydi,
Uning har dam vaqti chog'.
Shirinliklar mo'lu-ko'l
Ko'pdir qiziq o'yinchoq.
Bari sangadir, qo'zim!
Yig'lama hech yuldizim!
Baxtiyor o'tsin umring!

Yot, quvonchim, qunduzim!
Alla, alla.
Alla, alla, allayo.
Uxla, qo'zim, allayo.
Yum ko'zingni yuldizim,
Yum-yum ko'zingni, qunduzim!

MAQOLLAR

Xalq og'zaki ijodida maqollarning o'ziga xos o'rni bor. U xalqning, bir necha avlodlarning aqlu-farosati hamda turmush tajribasining yakuni, ular donishmandligining mahsulidir. Bola ta'lim-tarbiyasida maqollarning o'rni katta. Maqollar ona-vatanni sevishga, uning har bir qarich eri uchun kurashga (“Yurt qo'risang o'zarsan, qo'rimasang to'zarsan”); kasb hunar egasi bo'lishga (“Yigit kishiga etmish hunar ham oz”); ahil bo'lib mehnat qilishga (“Ko'pchilik qo'lda unum ko'p”); to'g'riso'z va halol kishilar bo'lib kamol topishga (“Egri ozadi, to'g'ri o'zadi”); yaxshi odob va olijanob xulqli bo'lishga (“Odob bozoda sotilmas”, “Yalqovlikning oxiri xo'rlik”) chaqiradi. Masalan:

Ona yurtning omon bo'lsa,
Rangu ro'ying somon bo'lmas.
Mehnatsiz rohat yo'q.
Egri ozadi, to'g'ri o'zadi.
Boshingga qilich kelsa ham, rost gapir.
Ko'zing og'risa qo'lingni tiy,
Iching og'risa, nafsingni tiy.
Odamning yuziga boqma, so'ziga boq.
Birliksiz kuch bo'lmas.
Yuzim oq bo'lsin desang, ishingni to'g'ri qil.

TOPISHMOQLAR

Topishmoqlar xalq og'zaki ijodining bolalarni o'ylashga, topqirlikka o'rgatuvchi qadimiy janrlaridan biridir. Har bir topishmoq zamirida “Kim?”, “Nima?” so'roqlariga yashirin javob yotadi. Har bir topishmoq uni yaratgan xalqning hayoti, urf odati o'ziga xos rasm-rusumlari bilan bog'liq holda bo'lib, bolalar o'rtasida keng tarqalgan. Masalan:

Tunda ko'rib, cho'g' deysan,

Tongda turib, yo'q deysan. (Yulduz)

Keragida suvga otasan,
Qimirlashin poylab yotasan. (Qarmoq)

Qo'shaloq tovoq,
Ichi to'la yog'. (Yong'oq)

TEZ AYTISHLAR

Tez aytishlar og'zaki nutq mashqi bo'lib, kichik yoshdagi bolalarda ma'lum tovushlarni to'g'ri va ohangdor talaffuz qilish ko'nikmalarini orttiradi. Bu janrga mansub asarlar bolalarni biyron so'zlashga o'rgatish bilan birga, ularga estetik zavq beradi, fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi, xotiralarini mustahkamlaydi. Masalan:

Olti juft oq chinni choynakka to'rt juft ko'k qopqoq, to'rt juft ko'k chinni choynakka olti juft oq qopqoq yopsa bo'ladimi?

Qurilishga terak kerak,
Demak, ekmoq kerak terak.

Tolib turupni tarozida tortib topshirdi.

Oq choynakka oq qopqoq, ko'k choynakka ko'k qopqoq.

Oltin o'tloq-oq o'tloq.

ERTAKLAR

Xalq og'zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertakdir. Xalq tomonidan yaratilgan ko'plab ertaklarda bolalarning o'ziga xos hayoti chetlab o'tilmagan. Hatto, turli yoshdagi bolalar uchun juda ko'p maxsus ertaklar yaratilgan.

Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlarini bilan chambarchas bog'lanishi insonlarga axloqiy va ma'naviy

yo'ldosh bo'lib kelishidadir. Ertaklar insonning ma'naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, ijobiy kuchlar tabiat va ijtimoiy hayotda o'ziga dushman bo'lgan kuchlarga qarshi kurashda doimo g'olib chiqadi. Xalq ertaklarida uni yaratuvchilarning dunyoqarashi, axloq normalari va boshqa ijtimoiy muhim masalalar odilona hal etiladi. Ertaklar sodda va tushunarli bo'lgani uchun har qanday kitobxonga tez etib boradi. Ular orqali ham insonning ijtimoiy axloq normalari shakllanadi.

Bu hol ayniqsa, hayvonlar haqidagi ertaklarda aks etgan. O'tmishda yaratilgan ertaklarda xalqchilik kurashi o'zining haqqoniy badiiy ifodasini topgandir. Xalqning kelajakka bo'lgan komil ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g'alabasi, yorug'likning zulmatni engishi, ozod va baxtiyor hayotga erishish g'oyalari yorqin obrazlar orqali tasvirlangan.

Xalq ertaklarida el-yurtning ko'z qorachig'iday avaylab saqlovchi ajoyib qahramonlar ulug'lanadi; ayollarning haq-huquqlari himoya qilinadi; uzoq masofalar yaqin qilinadi; kishilar xarakteridagi yaramas odatlar, noma'qul illatlar tanqid ostiga olinadi; mardlik, ephillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik g'oyalari ulug'lanadi.

Xalq ertaklari o'z xususiyatlariga ko'ra bir necha turga bo'linadi: hayotiy ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli afsonaviy ertaklar, ijtimoiy-maishiy ertaklar.

Demak, turli-tuman ko'rinishdagi xalq og'zaki ijodida ko'p asrlar mobaynida xalq tomonidan ulug'langan qadriyatlar, urf-odatlar, fazilatlar o'z aksini topadikim, ushbu kuchli vosita asosida o'quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirish ijobiy samaralarni beradi.

1.2. O'quvchilarga xalq og'zaki ijodi namunalari orqali milliy qadriyatlarni singdirishning nazariy asoslari

O'quvchilarga xalq og'zaki ijodi namunalari orqali milliy qadriyatlarni singdirish masalalari mustaqil O'zbekistonimizda shitob bilan rivojlanmoqda. Bir qator o'zbek olimlari: M. Jo'raev, S. Ochilov, O. Safarov, U. Mahkamov kabi olimlar xalq og'zaki ijodidan foydalanish orqali yoshlarda milliy g'ururni shakllantirish masalalariga e'tibor qaratmoqdalar.

Xalq og'zaki ijodi namunalarida komil inson g'oyasi, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Buyuk entsiklopedist-olimlar : Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Navoiy kabi mutafakkirlarning komil insonni tarbiyalash haqidagi fikrlari ham qaysidir bir ma'noda xalq og'zaki ijodi namunalarida ilgari surilgan g'oyalar asosida vujudga kelgan va jamiyat taraqqiyotiga yangi ma'naviy imkoniyatlar izlash maqsadlari bilan bog'langan. Forobiy fozil shahar aholisi haqidagi g'oyalarini ilgari surar ekan, shaxsning ma'anviy kamolotini adolatli jamiyat qurishning asosiy sharti deb hisoblagan.

Professor M. Mahmudov yurtboshimizning «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin» asarida komil inson shaxsi kontekstida qaraladigan yuzdan ortiq deskriptor³ mavjudligini aytib, ularni qisqartirilgan holga keltiradi. Bular: 1) o'zini anglash; 2) o'zligini anglash; 3) an'analarini anglash; 4) xalqning orzu-istaklarini bilish; 5) jamiyat oldidagi maqsadni tushunish; 6) yagona milliy bayroq ostida birlashish; 7) xalq va davlat xavfsizligi to'g'risida qayg'urish; 8) vatanni sevish; 9) el-yurtga sadoqat; 10) insonparvarlik hissi; 11) odamiylik fazilatlari; 12) o'tmish va kelajak o'rtasidagi vorislik; ulug' ajdodlar merosini egallash; 14) milliy qadriyatlarni bilish; 15) umumbashariy qadriyatlarni egallash; 16) yurt birligi to'g'risida qayg'urish; 17) o'z oldiga maqsad qo'ya bilish; 18) ta'lim-tarbiya birligi; 19) ta'lim-tarbiyaning ongni o'zgartirishi; 20) ong, tafakkurning jamiyatni o'zgartirishi; 21) mustaqil fikrlash; 22) ijtimoiy-siyosiy iqlim o'zgarishi; 23) insonning hayotda o'z o'rmini topishi; 24) iymoni butunlik, 25) sog'lom fikrlilik; 26) zehn-zakovatli yoshlarni tarbiyalash va shakllantirish⁴.

Komil inson bu- ozod shaxs, erkin fikr yurituvchi, o'z xalqining ideallari uchun kurashuvchi inson, o'z Vataniga halol xizmat qiluvchi kishidir.

«**Komillik** - mehr muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko'plab asl insoniy hislat va fazilatlarning majmuidir»⁵. Komil inson - qullik, mutelik, boqimondalikdan batomom xolos bo'lgan shaxsdir.

Tariximizda komillik timsollari ko'pdir. Alpomish- xalqimizning ideal qaxramoni. Navoiy uchun ideal -Farxod obrazi. Oybekning «Navoiy» romanida esa Navoiy- ideal obraz. Ayni paytda u real tarixiy shaxs, komil insondir.

Dissertatsiyada o'tmishdan qolgan xalq og'zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklar, allomalarimiz, mutafakkirlarimiz, ma'rifatparvar olim va pedagoglarimizning boy merosidan foydalanish yo'llari to'g'risida fikr bayon etildi.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi na'munalarini o'rganish orqali o'quvchilarda sabr-matonat, fidoiylilik, chidamlilik, botirlik, mardlik kabi hislatlar talqin qilinadi.

Ilmiy, uslubiy adabiyotlarda «milliy qadriyatlar»-«fidoiylilik», «sabr-qanoat», «matonat» kabi fazilatlarning tavsifi shaklan turli-tuman bo'lib ko'rinsada, ularning zamirida yagona g'oya, ya'ni bularning barchasi axloqiy fazilat va ular insonning ijobiy hislatlarini tashkil etishini ko'rsatadi.

³Deskriptor-(lotincha «descripto») yozaman, tavsiflayman.

2. M.Mahmudov. Komil inson shaxsi va ijtimoiy tajriba.G`G` «Pedagogik mahorat»,2002, 4-son, 6-10 bet.

Milliy istisloil hujayasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. "Yangi asr avlodi", 2000, 131-b.

Xalq og'zaki ijodida ulug'lanadigan fazilatlar: fidoiylilik, matonat, sabr-qanoat va boshqa axloqiy kategoriyalar inson tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Adabiyotlardagi tavsiflarni umumlashtirib, biz ushbu fazilatlarga quyidagicha tavsif yasaymiz:

Fidoiylilik- axloqiy kategoriya bo'lib, fors tilidagi «fido» o'zagi asosida tashkil qilingan so'zdir. «Fidoiylilik»- baxshida etmoq, fido aylamoq, o'zgalar uchun jonini baxshida qilish, jonini ayamalik kabi ma'noni bildiradi. Bugungi kunda «fidoiylilik»-keng ma'noda o'z kuch-quvvatini xalq manfaatlari yo'lida ayamay mehnat qilish, o'zgalar g'amini yeyish, kerak bo'lsa Vatani, eli uchun jonini fido qilish kabi hislatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Rus tilidagi «altruizm» so'ziga sinonim tariqasida qaralishi mumkin. Lekin, nazarimizda, fidoiylilik yanada teranroq, yanada kengroq ma'noga ega.

Sabr-qanoat-axloqiy kategoriya sifatida qaraladi. Arab tilidan olingan bo'lib, «sabr»-«chidam», qanoat etmoq, ya'ni bor narsaga, mavjud realikka bardosh bermoq ma'nosini anglatadi.

Matonat-mardlik, javonmardlik namunasi sifatida tan olingan axloqiy kategoriya. Har bir zamonda va har bir makonda mardlik, matonat, javonmardlik insonga xos bo'lgan go'zal fazilat sifatida qaralgan. Jahon adabiyoti sahifalarida yorqin yulduz bo'lib porlagan va porlayotgan har bir yozuvchi albatta bu mavzuni kuylagan va ta'rifini berishga harakat qilib kelishmoqda.

Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Koshifiy kabi buyuk daholar asarlarida bolalarni tarbiyalashda yoshligidanoq ularni javonmardlik sirlaridan boxabar qilish zarurligi ko'rsatilgan.

5-6-sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ojodi namunalarini o'rganish orqali ularda to'g'riso'zlik, fidoiylilik, sabr, matonat kabi fazilatlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatning ijtimoiy - iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyoti bevosita uning ma'naviy - axloqiy negizlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov qayd qilganidek, bu negizlar:

1. **Milliy qadriyatlarga sodiqlik;**
2. **Xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;**
3. **Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;**
4. **Vatanparvarlikdan** iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zining deyarli barcha nutqlari va asarlarida ma'naviyatga, tarbiyaga juda katta e'tibor qaratadi. Ayniqsa, uning quyidagi fikrlarida buni yaqqol ko'rish mumkin:

«..har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir¹» yoki

«Men Abdulla Avloniyning «tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir» degan fikrini ko'p mushohada qilaman.

Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir¹», deydi Prezidentimiz o'zining «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin» asarida.

Haqiqatdan ham yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek «..ma'naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam milliy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi. Hammasining zaminida tarbiya yotadi¹»*3

Mamlakatimiz rahbarininng "O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yuli" asarida mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy axloqiy negizlari, tarbiya sohasidagi vazifalarimiz o'z ifodasini topgan.

Asarda yoshlar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, ayniqsa, ijtimoiy va ma'naviy sohada quyidagilarga e'tibor qaratganligi ta'kidlanadi:

- 1) insonparvarlik g'oyalariga sodiqlik;
- 2) ma'naviy va axloqiylikni qayta tiklash;
- 3) qadimgi va zamonaviy madaniy boyliklarni adabiyot va san'atni bilish hamda ko'paytirish;
- 4) milliy va madaniy boyliklarni bilish hamda rivojlantirish;
- 5) xur fikrlilik, vijdon va din erkinligi qoidalarini qaror toptirish;
- 6) ijtimoiy adolat qoidalarini ruyobga chiqarish;
- 7) hamma uchun ma'qul tibbiy xizmat;
- 8) umumiy ta'lim olish, kasbni va tegishli maxsus tayyorgarlikni o'tishni erkin tanlashda barchaga barobar huquq berish;
- 9) ijodning barcha turlarini rivojlantirish;
- 10) milliy istiqlool g'oyasi tushunchalari asosida milliy mafkurani shakllantirish hamda uning asosiy tamoyillarini o'quvchilar ongiga singdirish.

Ana shu ma'naviy axloqiy negizlarning har birini yoshlarimiz ongida shakllantirish, ular ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilishning muhim omillaridan biridir. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek milliy g'oya va istiqlool mafkurasi yurtimizda yashayotgan barcha

¹ Karimov O'zbekiston kelajagi buyuk davlat.-T.: O'zbekiston, 2000,-B.- 108 b.

¹ Barkamol avlod orzusi.-T.: O'zbekiston, 1998.-B.-B.- 5.

¹Karimov I. A. Ma'naviy yuksalish yo'lida.-T.: Sharq, 1998.- B.- 31 .

kishilarning ma'naviy boyligiga dunyoqarashining negiziga aylanishiga erishish biz uchun eng asosiy maqsaddir.

Mamlakatimizda mafkuraviy mo'ljallarning tubdan yangilanishi, vatanparvarlik, fidoiylilik, matonat fazilatlarini kichik maktab yoshidagi bolalardan boshlash zarurligini ko'rsatmoqda. Bu esa talim-tarbiya tizimida yangicha metodologik yondashuvlarni yuzaga keltirayotir.

Mustaqil O'zbekistonning kuch - qudrat manbai - xalqimizning milliy qadriyatlariga sodiqligidir. Milliy qadriyatlar: insonparvarlik, to'g'riso'zlik, adolatparvarlik, kamtarinlik, samimiylilik, mehmondo'stlik va vatanparvarlik bo'lib hisoblanadi. Xalqimiz bu qadriyatlarning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab - asrab kelmoqda.

Xalq og'zaki ijodi na'munalaridan foydalanish orqali 7-8- sinf o'quvchilarida insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonparvarlik - bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Bugungi kunda hur va ozod xalqimiz barcha xalqlar va davlatlar tomonidan yaratilgan ma'rifatda, fan va texnikada, madaniyat va san'atda nimaiki yangi va ilg'or jihatlar bo'lsa shunga dadillik bilan intilmoqda. O'zbek diyorida, tarixda ko'p marta bo'lganidek, yana yangidan o'zimizning betakror va ilg'or, iqtidorli va eng muhimi - insonlarga kerakli qadriyatlarimiz barpo etiladi.

Xalqning ma'naviy ruxini mustahkamlash va rivojlantirish - O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun va insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan. Ma'naviyat turli xalqlar va mamlakatlar kishilarini qon - qardosh qiladi. Shu jihatdan olganda, xalq og'zaki ijodi mana shunday g'oyalarga tayangan holda shakllangan.

Bizning ma'naviyatimiz asrlar davomida million - million kishilar taqdiri asosida shakllangan. Ma'naviyat taqdirning ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak. Xalqimizning xotirasi ajoyib nomlarga boy. Butun jahonga mashhur bo'lgan Beruniy, al-Xorazmiy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Ulug'bek, Navoiy va boshqa ko'pgina allomalar ma'naviyati keng va ayni vaqtda qismati og'ir bo'lgan siymolardir. Ma'naviyat - insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch - qudratidir. Vatan va jahon madaniyatining, adabiyot va san'atning yutuqlari har bir oilaga yetib borishi uchun oilaning moddiy ta'minlanganligidan qat'i nazar qulay sharoitlar yaratish talab etiladi. Ijodiy xodimlarning ma'naviy kuchiga erkinlik berish, ularga har tomonlama yordam ko'rsatish ham katta ahamiyatga egadir.

Insonning o'zi va o'z oilasining baxt - saodati yo'lida mehnat qilishga shaxsan tayyor ekanligi uning ichki imkoniyatlarini tashkil etadi. Shaxs imkoniyatlari bizda juda chuqur asoslarga egadir. Respublikamizda jahon fani va texnikasi, falsafa va huquq yutuqlarini egallab

olgan va shu bilan birga o'z xalqiga sodiqligini saqlab qolgan kishilar juda ko'pdir. O'tkazilayotgan islohotlar respublika fuqarolarining mehnatsevarligi, ishbilarmonligi va fidoyiligini namoyon etishda ularga yangi imkoniyatlar ochib beradi. O'z - o'zini rivojlantirishga, o'zini kamol toptirishga bo'lgan intilish insonning g'ururini, uning haqiqiy fazilatlarini yuksaltiradi.

5-6-sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi namunalari asosida vatanparvarlik, kamtarinlik, fidoiylik, sabr- qanoat kabi fazilatlarni shakllantirishda turli –tuman metodlardan foydalanish mumkin. Buning uchun, avvalambor, vatanparvarlik tushunchasi yurtboshimiz asarida qanday ifodalanganligini bilishimiz lozim.

“O'zbekiston fuqarosining vatanparvarligi - bu qayta o'zgarishlar yo'lini ko'rsatuvchi, ko'zlangan maqsaddan chetga chiqmaydigan yo'lchi yulduz, ishonchli komposdir. Xalqning vatanparvarlik his - tuyg'ulari, uning ozodlikka va baxt - saodatga intilishi har bir O'zbekistonlik uchun muqaddas mazmun kasb etayotgan mustaqil O'zbekistonning yangi davlat ramzlarida o'z ifodasini topmoqda¹”.

O'quvchilarga davlatimiz ramzlari - bayroq, tamg'a, madhiya O'zbekiston xalqlarining shon - sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtirishlarini o'rgatish maqsadida turli adabiy kechalar, davra-suhbatlarini uyushtirish lozim. Mana shu ramzlarni e'zozlash - o'zining qadr - qimmatini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash demakdir. Vatanga sodiqlik, vatanparvarlik, o'zining qudratli ildizlari bilan o'z oilasining avlod - ajdodlarining nomus origa chuqur ehtiroimga, insonning shaxsiy vijdoniga, burchga va o'z so'ziga sodiqlikka borib taqaladi. Kishilarimizning vatanparvarligi hamma vaqt sevimli xalqning shon - sharafi, qadr - qimmatini, madaniyati va an'alariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda o'z ifodasini topib keldi. Vatanparvarlik fuqarolar yakdilligi yosh va mustaqil O'zbekiston davlati barpo etilayotgan negizdir. Ayni shu narsa jamiyatni qayta o'zgartirish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga, hamjihatlik va hamkorlikka erishishga yordam beradi. Shunday ekan, Boshlang'ich ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchilik faolligini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb - kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, keksa avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi. Bizning davlatimiz mutaxassislar tayyorlashning ilg'or jahon tajribasini faoliyatga keng tadbiiq etadi. Avvalo, O'zbekistonning o'zida yuqori sifatli ta'lim uchun sharoitlar yaratadi. Bizning xalqimizning doimiy fazilati bo'lgan haqiqatni bilish yo'lidagi sabotni fan, texnika, texnologiya, boshqaruv va informatikada erishilgan jahon yutuqlarini o'zlashtirishga yo'naltirish kerak bo'ladi. Faqat ana o'shandagina O'zbekiston o'zining barcha boylıklarining chinakam egasi va haqiqiy madaniy davlat bo'ladi.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat.-Toshkent: O'zbekiston,1998.- B.-79.

O'zbekistonda ta'lim - tarbiyani islox qilishda ajdodlar merosidan foydalanish ayniqsa insoniyat tarixida odamlar ongi va shuuriga adolat, haqiqat, ezgulik, mehnatsevarlik kabi yuksak g'oyalar urug'ini sepgan zot payg'ambar Zardo'sht yaratgan "Avesto" kitobi, Abu Nosr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy qarashlaridan, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Imom Buxoriy, Imom Termiziyning ta'limotlarida va xalq og'zaki ijodiyotimizda aks etgan komil inson g'oyalaridan, adolat haqidagi qarashlaridan foydalanishimiz mumkin.

5-6- sinflarda dars beruvchi o'qituvchi yoshlarning ruxiyati, qiziqishini hisobga olishi, tarbiyaviy tadbirlarning sifat va samaradorligini oshirishda yangicha ishlash metodi va shakllaridan foydalanish san'atiga ega bo'lishi lozimdir.

Xalq og'zaki ijodi namunalari asosida o'quvchilarga milliy qadriyatlarni shakllantirishda pedagoglar o'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Pedagogika fani Konsepsiyasi talablari bilan hamohang ravishda olib borishlari lozim.

O'yin-eng yaxshi tarbiya vositasidir. Xalq og'zaki ijodidagi ijobiy qahramonlar roliga kirib, ulardagi xislatlarni o'zida mujassamlanishini ko'rmoqchi bo'lgan o'quvchilar ertaklardagi botirlar, mard o'g'lonlarga, aqlli va qurqmas, jasur va matonatli obrazlarga ko'proq taqlid qilishadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari asosida o'quvchilarga milliy qadriyatlarni shakllantirishda turli tadbirlardan foydalanish lozim: tarbiyaviy mavzuda axloqiy suxbatlar, kechalar, tarbiyaviy soatlar, munozara-debatlar, davra suxbatlari, bellashuvlar, adabiy mushoiralar, turli bilimdonlik o'yinlari, bayram kechalari, turli kasb egalari bilan uchrashuvlar, musobaqalar, sport anjumanlari va turli-tuman shoular va boshqalar kabi tashkil etish mumkin. Sayqallashib qolgan tadbirlardan iloji boricha voz kechish lozim.

Tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga qo'yilgan pedagogik talablar quyidagicha:

- Tadbirlarni o'tkazishdan oldin bolalar ruxiyati, qiziqishini o'rganish;
- o'tkaziladigan tadbirga bolalarda qiziqish uyg'ota bilish;
- Tarbiyaviy tadbir rejalashtirilganda sinfdagi hamma bolalarning mazkur faoliyatda ishtirok etishini ta'minlash;
- Tarbiyaviy tadbirda ishtirok etadigan bolalarni rag'batlantirish va boshqalar.

Bolalar bilan o'tkaziladigan tadbirlarni tashkil qilishning tartibi:

1. Mavzuning dolzarbligi.
2. Mavzuning mazmunini rejalashtirish.
3. Mavzuning maqsadi (ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi).
4. Tadbir o'tkazish uchun jihozlar.

5-6-sinf o'quvchilari uchun "Alpomish-mardlik va jasurlik timsoli", "Xalq og'zaki ijodida kamtarinlik va samimiylilikning kuylanishi", «Mardlik nima?», «Topishmoqlar mamlakatida», «Maqollar-xalq boyligi», «Men sevgan qahramon» va boshqa ko'plab mavzularda kechalar tashkil etish mumkin.

Shunday qilib, 5-6-sinf o'quvchilari uchun qiziqarli, to'laqonli, yosh jihatlariga mos iqlimni yaratish, mehnat, xayriya, ijtimoiy-foydali, ijodiy-ko'ngilochar va shunga o'xshash tadbirlar tashkil etilishi lozimki, natijada bolalar sog'lom ma'nodagi ko'ngillari tusagan ishga qo'l urishga o'rganib, Vataniga, eliga sodiq fidoyi insonlar bo'lib yetishib chiqsinlar.

II- BOB. SINFDAN TASHQARI TARBIYAVIY TADBIRLARDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH

2.1. Xalq og'zaki ijodidan foydalanish orqali o'quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirish va milliy g'ururni tarbiyalash tizimi

Xalq og'zaki ijodi namunalari asosida o'quvchilarga milliy qadriyatlarni shakllantirish tarbiyalanuvchi ruxiyatiga muayyan suratda ta'sir qilish jarayoni tushuniladi.

5-6- sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirishda ularning yosh xususiyatlarini inobatga olish zarur.

5-6- sinf o'quvchilarining axloqiylik darajasiga, ularning kelgusi hayotdagi yo'riqnomalariga xalq og'zaki ijodida tarannum etilgan fazilatlar katta ta'sir o'tkazadi.

Odamning yuksak psixik funksiyalari tariqasida bolalikda berilgan idrok, diqqat va tafakkur borliqni bilish formalari sifatida qaralishi shak-shubhasizdir. Faoliyatning bilish manbai, muloqotning esa odamning shaxsiy taraqqiyoti manbai ekanligi ma'lum. Xalq og'zaki

ijodi namunalarda aks etgan yuksak g'oyalar ustida fikr yuritar ekanmiz, bunda yosh davridanoq bir-biridan ajralib turadigan o'quvchilarni ko'z oldimizga keltirishimiz lozim.

5-6- sinf o'quvchilarida bilish jarayonlari (sezgi, idrok, tafakkur, xayol va xotira)ni o'rganish tashlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaning individual jamoatchilik hatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy va tabiiy (tug'ma) xulq-atvori, hatti-harakatlarini tushuntirib va uni oldindan aytib berishda uning biosoidal tabiatini hisobga olish zarurligi o'rganiladi.

Ma'lumki, bola markaziy nerv tizimining tuzilishi, uning ishi (vazifalari) va xususiyatlari, uning markaziy va periferik qismi, bosh miyaning tuzilishi, har bir neyronning tuzilishi va uning ish tartibi, "retseptor" tushunchasi va uning turlari, "analizator" tushunchasi, odam bosh miya qobig'ining tuzilishi va uning asosiy maydonlari satqi qismlari ustida, bosh miya qobig'ida sodir bo'ladigan asosiy psixik jarayonlar va kishining psixik holatlari, retikulyar formatsiyalarining markaziy nerv tizimida tutgan o'rni, uning roli va vazifalari to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lish pedagogik tashhishlashni oqilona tashkil qilishga imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari xalq og'ki ijodi namunalari asosida 5-6- sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashda bola psixikasi, unda nerv bog'lanishlarining prinsipi va umumiy mexanizmlari, psixik hodisalarning miya ishi bilan bog'liqligi, ularning psixik jarayonlari bilan aloqasi va xulq-atvor, xatti-harakatlarini boshqarishdagi, psixik hodisalar va miyaning ayrim tuzilishining bir xildagi o'zaro ta'siri, muammolari haqida ma'lumotga ega bo'lgani afzal.

Shu bilan bir qatorda, bola miyasida sodir bo'ladigan psixik holatlarning anatom-fiziologik xususiyatlari bunda sezgilarning tarkib topishida ishtirok etadigan miya tuzilishi va tanamizdagi a'zolarining fiziologik mexanizmlari ustida o'ylanib ko'rishi zarur.

Axloqiy tarbiya fazilatlarini: sabr-qanoat, matonatni xulq-atvorning genetik ildizi bunda odam psixologiyasi va uning xulq-atvori, xatti-harakatlari rivojlanishida genetika va muhit, biologik va ijtimoiy omillarni tushuntirish muammolari, irsiyat mexanizmlari haqidagi tasavvurlar asosida hal qilishga yordam beradi.

Axloqiy tarbiya tadbirlarini amalga oshirishda xalq pedagogikasidan foydalanish o'rinlidir.

Xalq donishmandligi va odobnomasining nodir sohasi bo'lgan o'zbek xalq pedagogikasi ijtimoiy va maishiy-axloqiy xayotning barcha tomonlarini, xalq og'zaki ijodi, qadrshunoslik, udumshunosligi va marosimshunosligining yetakchi yo'nalishlarini, diniy-axloqiy ta'limotni qamrab olganligi bilan xarakterlanadi. U xalqimizning asrlar davomida to'plagan boy tajribalarini, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, falsafiy, ma'rifiy, estetik, ma'naviy jismoniy yetuklik borasidagi qarashlarini, xulosalarini lo'nda va donishmandona tarzda ifodalaydi.

Xalq pedagogikasida tarbiyaning mayda-chuydasi, ya'ni birlamchi-ikkilamchisi bo'lmaydi, hamma narsa hisobga olinishi, hech bir soha chetda qolmasligi, ayni chog'da tarbiyaning nihoyatda nozik, injiq, murakkab tomonlari e'tiborga olingan holda, yetti o'lchab bir kesishga

amal qilinadi. Xalq pedagogikasining o'ziga xosligi shundaki, u bugun va ertani uylab ish tutadi, ya'ni o'tmishni unutmaslik, bugunning qadriga yetishlik, kelajakka umid asosida tarbiya olib boradi.

Xalq pedagogikasining asrlar davomida shakllanib, rivojlanib, boyib borishining, inson va Vatan taqdirida hal qiluvchi rolining boisi, birinchidan, uning qayotiyiligi, ta'sirchanligi, serqirra va serma'noligida bo'lsa, ikkinchidan, uning bevosita xalq tomonidan mavjud hayot jarayonida jonli an'analarda yaratilishi, tarbiyaning eng dolzarb masalalarini hal qilishga qaratilganligi, uchinchidan, milliy yo'nalishga, umumbashariy g'oya-maqсадlarga qaratilgan bo'lganligidir. Shuning uchun xalq pedagogikasi tarix to'fonlariga haramasdan o'z faoliyatini to'xtatmaydi va yoshlar tarbiyasi borasida hal qiluvchi o'rinni egallab kelmoqda.

Bolalarga axloqiy tarbiya berishda bolalar o'yin folklorining o'rni va ahamiyati katta bo'lsa, xalq an'anaviy sporti - farzandlar jismoniy baquvvatligi va yetukligining garovidir. Xalq pedagogikasining ekologik tarbiya berishdagi imkoniyati ham kengdir. Atrof muhit va tabiatni e'zozlash, hayvonlar, qushlar, dov-daraxt, o'simliklar, yer, suv, borliqqa munosabatni ifodalovchi qarashlar ekologik tarbiya berishga qaratilgandir. Turli udumlar, rasm-rusm, marosimlar, tabiat bayramlari, «Navro'z», «Mehrjon», «Hayit bayrami», bolani beshikka solish, sunnat qilinishi, uylanish, payg'ambar yoshi, oltin va kumush to'ylar, turli yubileylar, odatlar, udumlar va marosimlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati ham juda kattadir.

Turli qo'shiqlar orqali go'zallik, orzu-umid va boshqalar tarannum etilib, insonda cheksiz muhabbatni tarkib toptiradi. Ertaklar orqali yaxshilikka mehr, yovuzlikka nafrat tarbiyalanadi. Yoshlarimizni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashimizda ayniqsa, qahramonlik dostonlarining ahamiyati ham kattadir.

Xalq pedagogikasi umuman olganda ilmiy pedagogika bilan bog'liqdir. Ma'lum ma'noda o'zbek xalq og'zaki ijodi to'g'ridan -to'g'ri yoshlar tarbiyasiga ta'sir etish vositasi bo'lib xizmat qilgan va xizmat qilib kelmoqda. Chunonchi, tez aytishlar - bolalar nutqini o'stirishga, topishmoqlar - bolalarning topqirligi, zehni tarbiyalashga, maqollar- bolalarning axloq-odob tarbiyasiga, qo'shiqlar- bolalarning nafosat tarbiyasiga, doston va ertaklar bolalarning aqliy, axloqiy, jismoniy va umuman har tomonlama tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, hozirgi vaqtda bolalarga sabr, matonat, fidoiylk kabi axloqiy fazilatlarni singdirishda qo'yidagi jihatlar hisobga olinishi zarur:

- diqqatni, sabr-toqatni boshqarish, topshiriqlarni bajarish tayyorgarligi ifodalangan ishga munosabat;
- bir qadar tarbiyachidan holi bo'lish guruh bilan aloqa o'rnatish qobiliyatini ko'rsatuvchi ijtimoiy jihat.

Albatta, bolada bu ko'rsatkichlar o'z-o'zidan shakllanmaydi, ular pedagogik jarayon mahsulidir, shu boisdan tarbiyachi bolalar ongini o'stiradigan, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish tiradigan real muhit yaratishi lozim. Bugun bolalarning aqliy, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi chet-el metodlari («Montessori», «Breyning», «Breyningstorming»)dan qator ta'lim muassasalarida foydalanishmoqda va yaxshi natijalarga erishilmoqda. Shuningdek, «Bolalarni rivojlantirish» tayanch dasturi ishlab chiqilganligi va tajriba sinovdan o'tayotganligi ham ma'lum. Shu o'rinda axloqiy tarbiyaning ta'lim muassasalari uchun o'ziga xos tomonlarini ko'rsatib o'tish joizdir:

- 1) har bir mashg'ulotdan ko'zda tutilgan maqsad aniq o'rnatiladi;
- 2) o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlari albatta inobatga olinadi;
- 3) mashg'ulot mazmunini saralashda bir tomondan bolalarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyatlari, ikkinchi tomondan- tarbiyachining ijodkorligi, mahorati, uchinchi-dan- mavjud shart-sharoitlar hisobga olinadi;
- 4) didaktik jarayon tuzilmasi keskin farqlanadi, ya'ni uning motivatsion bosqichi kuchaytiriladi. Boshqacha qilib aytganda, o'yinli didaktik jarayon loyihalananayotgan texnologiyaning asosini tashkil etadi;
- 5) didaktik jarayon ikkinchi bosqichi- bolalarning o'quv bilish faoliyatini (o'f o'yin tashkil etadi);
- 6) uchinchi bosqich-boshqaruv faoliyati (B) funksiyasi ham o'zgaradi. Agar o'quv jarayonida o'qituvchi o'quvchining bilish faoliyati bosqichiga aralashmaydigan bo'lsa, tarbiyachi faoliyati didaktik jarayonning o'fda ham ustivorlik kasb etadi;
- 7) texnologiyalarni qo'llash samarasi yoki yakuniy daraja- bu shaxsni rivojlantirish va katta sinflarda o'qishga tayyorlash ekanligiga o'qituvchi alohida e'tibor qaratishi lozim. Bola tarbiya jarayonining sust, harakatsiz ob'ekti bo'lib qolmasdan, balki faol ishtirokchisiga- sub'ektga aylanishi kerak.

Xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tashkil qilingan o'yin o'quvchilar o'zlashtira oladigan faoliyat hisoblanib, bu faoliyat jarayonida ular o'qishga, mehnatga badiiy ijodga qiziqadilar, hayotiy muammolarni tezda ilg'ab oladilar. Shu boisdan o'yinga tayanib ish ko'rish- bola xulqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga, uni o'qishga qiziqtirishga eng maqbul yo'l, tarbiyaviy ta'sirga hayajonli javob berishni ta'minlash uslub bo'lib hisoblanadi.

O'yinli vaziyatlardan maqsadli foydalanish g'oyasi birmuncha ilg'or va samaralidir. Turli yoshdagi odamlar faoliyatini o'yin tarzida tashkil etish va kasb mahoratini takomillashtirish tajribasi pedagogika fani uchun yangilik bo'lmasa-da, o'yinli didaktik jarayonni loyihalash texnologiyasi yetarlicha ishlanmagan. Mavjud adabiyotlarda o'yinning ishbilarmonlik, rolli, ishlab chiqarish, tadqiqotchilik va o'qishga oid turlari mohiyati va mazmuni uchrab turadi, biroq

hanuzgacha kompyuterli, «ishbilarmonlik», turli tarbiyaviy ahamiyatga molik o'yinlariga qo'yiladigan asosiy talablariga javob beruvchi metodikaning ishlab chiqilmaganligini qayd etish o'rinlidir, ya'ni: o'yin jarayonining kuchaytirilgan va turg'un motivatsiyasi, o'yinning bajaruvchi bosqichida (B) ishtirokchilarning muvaffaqiyatga erishish va qanoat hosil qilishi, bilish faoliyatini maqsadli boshqarish va o'yin so'ngiga faoliyatni o'zlashtirish sifatining ta'minlanishiga erishish.

Xalq og'zaki ijodi namunalari asosida 5-6- sinf o'quvchilari uchun o'yinning qo'yidagi turlari mavjud: mavzuli-rolli o'yinlar, o'yin-mehnat, didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, vaqti-xushlik o'yinlari, sayr-tomosha o'yinlari, majmualiy bayram o'yinlari.

«Mavzuli rolli o'yinlar bolalarning mustaqil yoki kattalar yordamida ijtimoiy tajribani, moddiy ob'ektni hayotiy va badiiy taassurotlar asosida ijodiy qayta yaratish faoliyatidir¹», deb ta'kidlaydi o'zbek olimi Nurali Sayidaxmedov . Bu faoliyat natijasida bolalar nutqi, fikrlashi, xayol surishi va boshqa axloqiy sifatleri tarkib topadi. Buning uchun o'quvchi yoshiga xos kichik hajmdagi hayotiy mavzular sahna ko'rinishida ijro etiladi. Misol uchun, «Ertaklar olamida», «Alpomish maydonida», «Sharqq bozori», «Maqollar yarmarkasi», «Barchinoy bilan suhbat» sahnasini ijro etishi bilan bolalar yangi tushuncha va munosabatlarga duch kelishadi va ularni binoyidek o'zlashtiradilar.

O'yin-mehnat jarayonida bolalar atrof olam to'grisida chuqurroq tasavvurga ega bo'ladilar, ish jarayoni va harakatlarining umumiy ko'rinishini o'zlashtiradilar.

Didaktik o'yinlar bolalarning aqliy rivojlanishida, ularni bilishga undashda birmuncha afzalliklarga ega. Bu o'yinlar pedagog tomonidan o'quv-tarbiyaviy maqsadlar uchun maxsus tashkil etiladi. Foydalanilayotgan materiallar turiga qarab didaktik o'yinlar predmetli- didaktik o'yinchoqlar va materiallar;- «qiyin sayohat», «labirint», so'zli- o'yin-topishmoqlar, masalalar, o'yin-sayohatlar va boshqa.

Tarbiya jarayonida tarbiyaviy ishlar mazmunida doimiy takrorlanishga duch kelamiz. 5-6- sinf o'quvchilarida do'stlik, o'rtoqlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, milliy g'ururni tarbiyalash ko'zda tutiladi. Lekin ularning mazmuni bolalarning yoshi va hayotiy tajribasiga muvofiq kengayib va chuqurlashib boradi. Demak, **fidoiylilik, sabr-qanoat, matonat** kabi fazilatlarni tarbiyaviy ishlar mazmuni va bolalar tajribasiga oqilona yondoshgan holda shakllantirish zarur.

5-6- sinf o'quvchilarida fidoiylilik, sabr-qanoat, matonat kabi fazilatlarni shakllantirishda xalq og'zaki ijodining o'rni

¹N.Sayidaxmedov.-Yangi pedagogic texnologiyalar.- Toshkent: Yangi asr, 2003.-B.83.

Tarbiya jarayonining xususiyatlari				
5-6- sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarni tarbiyalaydi	Uzoq muddat davom etadi	Yaxlit holda va konsentrik asosda amalga oshadi	Ma'naviy ozuqa sifatida maydonga chiqadi	Tarbiyaviy ta'siri

Tarbiyalanuvchilarning o'zlari ham tarbiya jarayoniga faol qatnashsalargina tarbiyaning ta'siri kuchli bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya masalasi jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqligiga yurtboshimiz alohida e'tibor berib, ta'lim-tarbiya islohati zarurligini asoslab beradi va: «Ma'naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi, hammasining zaminida tarbiya yotadi»⁶, deydi

Mamlakatimiz rahbari «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida «Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi»⁷- deb ta'kidlaydi.

Bolalarda fidoiylik, sabr, matonat kabi fazilatlarni shakllantirish yo'llarini belgilashdan oldin tarbiyachi, avvalambor, tarbiya jarayonining mazmuni, usuli va qoidalari, tashkil etish shakllarini o'rganishi shart. «Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir ko'rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-birlari bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o'zaro ta'sir ko'rsatishi ekanligi alohida ta'kidlanadi²».

Tarbiya jarayonini samarali tashkil etish ko'p jihatdan tarbiya qoidalariga amal qilinishiga ham bog'liqdir. Tarbiya qoidasi - bu pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari deb o'qituvchi, tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar tushuniladi, ular komil insonni shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya qoidalari Sharq va Markaziy Osiyo donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogika erishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiya qoidalari mustaqil xarakterga ega bo'lib, tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini va qonuniyatlarini aks ettiradi.


⁶ Barkamol avlod orzusi. T.Sharq, 1992, 53-bet.

⁷ Karimov I.A "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. «Sharq» 1998, 7-bet.

² Qo'ziyev Z. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish.-T., 1996y.

2.2. Sinfдан tashqari tarbiyaviy tadbirlarda xalq og'zaki ijodidan foydalanish printsiplari, uslub va vositalari

Xalq og'zaki ijodi namunalari asosida o'quvchilarga milliy qadriyatlarni shakllantirishda: tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi; tarbiyaning insonparvarlik va demokratiya qoidasi; tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi qoidasi; tarbiyada milliy-madaniy va milliy qadriyatlarning ustivorligi qoidasi; tarbiyada o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish qoidasi; izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning birligi va uzluksizligi qoidasi muhim ahaiyat kasb etadi.



Xalq og'zaki ijodi namunalari asosida 5-6- sinf o'quvchilarida fidoiylilik, sabr-qanoat, matonat kabi fazilatlarni shakllantirishdan maqsad, har tomonlama yetuk komil shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Shunga ko'ra tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari va usullari shu maqsadga erishishni ko'zda tutadi. Tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Ko'pincha bir necha maqsad va vazifa birdaniga bajariladi, bu esa bolalar jamoasining aqliy va axloqiy o'sishini ta'minlaydi. Har bir tarbiyaviy tadbir oldindan puxta o'ylangan, muayyan maqsadni amalga oshirishga bo'ysindirilgan bo'lsa, uning g'oyaviy-siyosiy darajasini ko'taradi, tanlangan usul va vositalar maqsadga muvofiq keladi, ularning tarbiyaviy ta'siri yuqori bo'ladi.

Tarbiyadagi insonparvarlik va demokratiya qoidasi mohiyati shundan iboratki, tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bolaning o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim.

Tarbiyada milliy va milliy qadriyatlarning ustivorligi qoidasi tarbiya jarayonida o'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosiga, an'alariga, milliy qadriyatlarga tayangan holda ish ko'rishni nazarda tutadi.

Tarbiyada izchillik, tizimlilik - tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzluksizligi qoidasi o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka rioya qilishni, o'quvchiga birdaniga juda ko'p talab qo'ymaslikni, tarbiyada maktab oila, jamoatchilik talabining bir xil bo'lishini talab qiladi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari asosida o'quvchilarga milliy qadriyatlarni shakllantirishda pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari o'qituvchi, tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar hisoblanadi. Tarbiyaning mazmuni, tashkil etilishi, usullari va ularga qo'yiladigan talablar tarbiya qoidalarida o'z ifodasini topadi. Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad, har tomonlma yetuk, ma'naviy rivojlangan, aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat ekan, tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari va usullari shu maqsadga erishishni nazarda tutadi. Tarbiyaning maqsadga qaratilganlik qoidasi shularda o'z ifodasini topadi.

Maqsadga intilish va maqsad bir xil narsa emas, maqsadni amalga oshirish uchun harakat qilish lozim. Shaxsning shakllanish manfaatlari har bir pedagogik tadbirni tarbiyaning umumiy maqsadlari bilan bog'lashni, uni rejali tarzda va qat'iy suratda amalga oshirishga harakat qilishni talab etadi. Tarbiya sohasida qanday ish olib borilmasin, avvalo tarbiyachi va o'qituvchi


tarbiyaning maqsadi va vazifasini aniq tasavvur etishi va anglab olishi lozim. Maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan barcha ishlar o'ylangan muayyan maqsadni amalga oshirishga, umuman olganda komil insonni tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi zarur.

Xalq og'zaki ijodi namunalari asosida o'quvchilarga milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayonida insonparvarlik va demokratiya qoidasiga amal qilish hozirgi kunning muhim talabidir. O'smirlarga insonparvarlik tarbiyasini singdirishda Xalq og'zaki ijodiyoti, qur'oni Karim, Hadisi sharifdan, buyuk allomalarimizning axloqiy-didaktik asarlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yoshlarning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim.

Professor J.Tulenovning ta'rificha : «qadriyatlar deyilganda faqat o'tmish davrlar uchun muhim ahamiyat kasb etib qolmasdan, hozirgi kun va kelajakdagi taraqqiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma'naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa boyliklar majmui tushuniladi»⁸. Qadriyat degan tushuncha qadr-qimmat, degan ma'noni bildiradi.

Xalqimizning ko'p asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy madaniy merosini chuqur bilmasdan, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. O'zbek xalqi ko'p asrlik tarixiy taraqqiyotida katta madaniyatni yaratdi. U yaratgan boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Al-Buxoriy, al-Xorazmiy, Yusuf Xos Xojib, Axmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bedil va boshqa buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali o'quvchilar go'zal axloq, baxt, insof, poklik, iffat, sabr-matonat, mehr-shafqat, ota onani hurmat qilish qoidalari haqida keng tasavvurga ega bo'ladilar. Insoniylik o'z tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, ya'ni odamlar o'rtasida o'zaro yaxshi munosabatda bo'lish, do'stlik, ota-onaga sadoqatlilik, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarini qamrab oladi. Ota-bobolarimiz bolalarda yoshlikdan ana shu go'zal fazilatlarini qaror topishiga katta ahamiyat berganlar.



⁸ Tulenov J., G'ofurov Z. Falsafa. -T., o'qituvchi», 1997 y, 285-bet

Kattaga-hurmat,
kichikka izzat. Ayolga
ehtiram.

Sabr-bardosh va
mehnatsevarlik


Halollik, mehr-oqibat,
matonat

Istiqlol mafkurasi xalqimizning tabiati, irodasi, orzu-intilishlarini ifodalaydigan qator milliy xususiyatlarni zamon talablari asosida yanada boyitishni nazarda tutadi. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat


(yuqoridagi chizmaga qarang).

Milliy qadriyatlar bilan birgalikda, adolat, tenglik, ozodlik, aqil qo'shnihilik, insonparvarlik kabi milliy qadriyatlar mohiyatini ham yoshlarga yoritib berish, shu qadriyatlarga amal qilishga tayyorlab borish pedagogikaning muhim vazifalaridan deb belgilanadi.

Istiqlol mafkuramiz ham quyidagi umumbashariy qadriyatlardan oziqlanadi (quyidagi chizma):




5-6- sinf o'quvchilarida matonatning tarkib topishi




Milliy ruxiyat- millatning ichki xolati, kechinmalari, xis-tuyg'ulari, ma'naviy dunyosi, uy-fikrlari, maqsad va maslaklari hamda kayfiyatlari bilan bog'liq mulohazalari majmuidir.

Xalq og'zaki ijodida ulug'lanadigan fazilatlardan biri-milliy iftixor tuyg'usidir. Bu tuyg'u- o'z milliy mansubligidan millatining boy tarixi, madaniy va ma'naviy merosidan, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasidan g'ururlanish va faxlanish imkoniyati. Milliy iftixori kuchli bo'lgan shaxs o'z mamlakati bilan faxrlana oladi va uning taqdiriga befarq qaramaydi. Milliy iftixori kuchli bo'lgan shaxs istiqbolni chuqurroq anglaydi, uning ertasi bugungidan ko'ra mukammalroq bo'lishiga intiladi. Shuning uchun biz yoshlarimizda milliy ongni shakllantirish uchun ta'lim-tarbiyaviy faoliyatimizda katta sa'y-harakat ko'rsatishimiz lozim bo'ladi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari asosida o'quvchilarga milliy qadriyatlarni shakllantirishda moddiy, ma'naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi (chizmaga qarang).



Xalq og'zaki ijodi orqali o'quvchilarda fidoiylilik, sabr-qanoat, matonat kabi fazilatlarni shakllantirishda turli tarbiyaviy metodlardan foydalanish joiz. Tarbiya metodlari- tarbiya usullari deb ham yuritiladi. «Metod» suzi yunonchadan olingan bo'lib, yo'l, usul ma'nosini bildiradi. Tarbiya metodi - tarbiya jarayonida o'qituvchi yakka o'quvchi yoki sinf jamoasi manfaati yo'lida biron-bir tarbiyaviy masalani hal qilish uchun o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini, tarbiyalanganlik darajalarini, pedagogik vaziyat xarakterini hisobga olgan holda ta'sir etish shakllari majmuasidir. Axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab tarbiya usullari quyidagi turlarga bo'linadi (quyidagi chizmaga qarang):



Tarbiya murakkab jarayon bo'lib, uning usullari, vosita va omillari asrlar davomida shakllanib takomillashadi, uzini oqlagan urf-odatlar an'anaga aylanadi. Xalq pedagogikasida turli tarbiya usullari va vositalaridan foydalaniladi, bu usul va vositalar nihoyatda rang-barang bo'lib, ko'p tomonlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Bu usullar ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan usullar: tushuntirish; namuna; nasihat, o'git berish; qoralash va jazo.

Pedagogikada tarbiya metodlari quyidagi guruhlariga bo'linadi: ijtimoiy ongini shakllantiruvchi usullar; faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq va tajribalarni shakllantirish usullari; o'z-o'zini tarbiyalash usullari; rag'batlantirish va jazolash usullari.

Umumiy o'rta talim maktablaridagi tarbiyaviy ishlarning sinfdan tashqari shakllari ham xilma-xildir. Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning dars jarayonida olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, ularni takomillashtirish, o'quvchilarda mustaqillikni tarkib toptirishdek muhim masalalarini hal qilinadi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar fanlarning o'ziga xos xarakteriga ko'ra turli shaklda, har xil usul va metodlar asosida olib boriladi. Xalq og'zaki ijodining tarkibiy qismi bo'lish bolalar og'zaki ijodi janrlaridan talim va tarbiya maqsadlarida foydalanish aloxida o'rin tutadi. Maktabda bolalar og'zaki ijodidan foydalanish o'quvchilarda xalq yaratgan asarlarga muhabbat hissini uyg'otadi, estetik didni o'stiradi, ularni axloqiy jihatdan tarbiyalaydi. Boshlang'ich sinflarda bolalar og'zaki ijodidan asosan ona tili, o'qish, tabiatshunoslik bo'yicha olib boriladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlarda foydalaniladi. Yuqori sinflarda bolalar og'zaki ijodidan adabiyot, tarix bo'yicha sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda foydalaniladi. Maktabda sinfdan tashqari qu yidagi tarbiyaviy tadbirlarda bolalar og'zaki ijodidan foydalaniladi.

1. Tarbiyaviy mashg'ulotlarda
2. Sinfdan tashqari o'qishda.
3. Adabiyot to'garaklarida.
4. Ertalik va kechalarni tashkil etishda.
5. Maktab devoriy gazetalari va jaridalari sahifasida.
6. Ko'rgazmalar va tanlovlar uyushtirishda.
7. Illyustrativ va mavzuli albomlarda.
8. Ko'rgazmali qo'rollar tayyorlashda.
9. Didaktik o'yinlarda.
10. Rebuslar tuzishda.
11. Ekspeditsiyalar o'tkazishda.
12. Ekskursiyalar o'tkazishda.
13. Krossvordlar tuzishda.
14. Stendlar tayyorlashda.
15. Viktorinalar o'tkazish va hokazolarda.

Bolalar og'zaki ijodi materiallarini amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlardan biri sinfdan tashqari o'qishdir. Bu mashg'ulot quyidagi ikki shaklda o'tkazilishi mumkin:

1. Bolalar og'zaki ijodi asarlarini qo'shimcha material sifatida o'qish
2. Ixtiyoriy o'qish tarzida.

O'rta maktabning quyi va o'rta sinflarning o'quvchilari uchun tuzilgan o'quv dasturida bolalar og'zaki ijodiga doir qator materiallar berilgan. Lekin darslar jarayonida ertak, maqol, topishmoq, tez aytish va xalq qo'shiqlaridan foydalanishning iloji yuq.. Shuning

uchun ulardan faqat sinfdan tashqari mustaqil o'qish jarayonida foydalanish mumkin. O'quvchilar sinfdan tashqari o'qish jaranida badiiy kitoblar qatorida qatorida bolalar og'zaki ijodiga doir asarlar bilan tanishib boradilar. Ular haqida tegishli bilim va tushunchalarni egallaydilar. O'quvchilarda bolalar og'zaki ijodiga qiziqishini oshirish maqsadida sinfdan tashqari amalga oshiriladigan tadbirlaridan biri mazkur asarlar ko'rgazmasini tashkil etishdir. Bu tadbir muhim pedagogik ahamiyatga ega. Chunki ko'rgazma o'quvchilarni o'zbek va qardosh xalqlar og'zaki ijodi asarlari bilan tanishtiradi va tegishli bilimlar hamda malakalar bilan qurollanishga da'vat etadi.

Umuman, yosh kitobxonlarning bolalar xalq og'zaki ijodiga munosabatlarini aniqlashda ular bilan kutubxonachi o'tkazgan suhbatlar yozib boriladigan daftarlar ham muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarning xalq og'zaki ijodi asarlariga bylgan qiziqishini aniqlashning har xil usullari mavjud. Masalan, sinfda xalq og'zaki ijodi bo'yicha yozilgan ishlarning natijalariga, xalq og'zaki ijodi kundaliklariga, tayyorlangan albomlariga, maktabda tashkil etilgan adabiy kechalardagi, kitobxonlar konferensiyalaridagi ishtirokiga qarab ham o'quvchilarning xalq og'zaki ijodiga munosabatlarini bilib olish mumkin. Lekin yosh kitobxonlarning xalq og'zaki ijodiga qiziqishlarini aniqlashning eng qulay metodi ular bilan jamoa va yakkama-yakka sug'batlao o'tkazishdir. Suhbatning ikkala shaklida ham bitta maqsad ko'zlanadi, va bu maqsad o'quvchilarda faollikni oshirish hamda mustaqil fikrlashni takomillashtirishgadan iborat bo'lib, bularga muayyan savollar orqali erishiladi. O'qituvchi suhbatlarga puxta tayyorgarlik ko'rishi, suhbat ob'ektini oldindan chuqur o'rganib chiqishi zarur. Suhbatlar davomida o'quvchi ayrim xalk ertaklaridagi qahramonlarning qiziqarli tomonlari haqidagi fikrini mustaqil ifodalay olmasa yoki bunga qiynalsa, o'qituvchi unga qo'shimcha savollar bilan yo'llanma beradi. Yakkama-yakka suhbatdan yosh kitobxonlarning xalq og'zaki ijodiga munosabatini aniqlashda keng foydalanish mumkin. Bunday suhbatda kitobxon o'zi o'qib o'rgangan xalq ertak va qo'shiqlarini to'la tahlil qilish shart emas, u xalq og'zaki ijodi asari to'g'risidagi shaxsiy fikrlarini, o'ziga yoqqan qahramon yoki epizodlar to'hrsida so'zlasa, bas. Shuningdek, u o'qilgan ertaklar va maxsus mavzular bo'yicha to'plangan maqollar asosida yozgan ijodiy diktanti, inshosi, va bayonlarini o'qib beradi. Yakkama-yakka suhbatda o'quvchi xalq ertak va qo'shiqlarini o'qish usullarini umuman kitob o'qish texnikasini va qoidalarini qanchalik o'zlashtirgani aniqlanadi. Xalq og'zaki ijodining kichik janrlariga oid materiallar haqida o'tkaziladigan jamoa suhbatiga ham oldindan puxta tayyorgarlik ko'rish kerak. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishi bo'yicha tutgan daftari va kundaligini va o'z taassurotlarini qayta ko'rib chiqadi, tuzilgan savollarga o'quvchilarning tayyorgarligini aniqlab, suhbatni o'tkazish kuniva tartibini belgilab

oladi. Bunday suhbatda o'quvchilar o'zlari o'qigan ertak va maqollar, to'plagan topishmoq va tez aytishlar to'g'risida o'rtoqlari oldida hisobot beradilar. Bunda ular xalq ertaklari va maqollaridan, yangi yozib olingan topishmoq va tez aytishlardan, mustaqil tuzilgan krossvord va rebuslardan ko'rsatmali qurollar sifatida foydalanishlari yoki texnik vositalarni namoyish qilishlari mumkin. Shunga kura jamoa suhbatini o'qituvchidan puxta tayyorgarlikni, keng bilimga ega bo'lishni talab qiladi. Bolalar xalq og'zaki ijodi bo'yicha uyushtiriladigan sinfdan tashqari ishlardan biri ko'rsatmali qurollar tayyorlashdir. Ma'lumki, boshlang'ich sinflardagi o'qish, tabiatshunoslik, qo'l mehnati darslarida o'quvchilar asosan tabiat hodisalari, o'simlik va hayvonot dunyosi, oddiy qo'l mehnatini ifodalaydigan didaktik materiallar orqali tegishli bilim va ko'nikmalarini egallaydilar. O'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash va yanada chuqurlashtirish maqsadida turli ko'rsatmali qurollarni xalq maqollari, topishmoqlari va tez aytishlar asosida tayyorlash muhim didaktik ahamiyatga ega. Xalq og'zaki ijodining kichik janrlari asosidagi ko'rsatmali mazmuni predmetli, tasviriy va texnik xarakterda tayyorlash mumkin. Predmetli ko'rsatmalar topishmoq va tez aytishda ifodalangan ob'ektlarning asl nusxalari kolleksiyasini to'plash orqali tayyorlanadi. Tasviriy ko'rsatmali topishmoq yoki tez aytishda ifodalangan predmet-hodisalarning rasmlari bilan tayyorlanadi. Texnik ko'rsatmalarda magnitofon, teleskop, epidiaskop orqali ertakning mazmuni va uni ijro etuvchilarning mahoratlari namoyish qilinadi. Xalq og'zaki ijodining kichik janrlari asosidagi ko'rgazmalar tanlovini o'tkazish ham muhim ishdir. Bunday tanlovlar o'quvchilarning bilim va tushunchalarini kengaytiradi, o'qib o'rganilgan bilim va mustaqil tayyorlangan amaliy ishlarni tekshirib ko'rish imkonini beradi. Mazkur tanlovlarni maktab yoki pioner tashkilotining tarbiyaviy ish rejalari bo'yicha hamma parallel sinflarda yoki boshlang'ich sinflarda o'tkazish mumkin.

Suxbat va hikoya. Bola shaxsini g'oyaviy va axloqiy shakllantirishda tarbiyachining jonli so'zi eng ta'sirli usul hisoblanadi. Suhbat etik (jamiyatda axloq mezonlari), estetik, siyosiy, ta'lim va bilishga oid mavzularda uyushtirilishi mumkin. Suhbat davomida bolalarning dilidagini aytish jasoratini uyg'otish, bolalarni fikrlashga majbur qiluvchi savollar berish juda muhimdir. Bunda bahs-munozaralarning ahamiyati kattadir.

Hikoya. Bolalarga axloq mezonlari, Vatanimizning tabiiy- madaniy boyliklari, ajoyib-mexnatkash kishilari, tarix, adabiyot, san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Suhbat va hikoya o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ularning qiziqishini hisobga olgan holda tanlanishi va o'tkazilishi lozim. Bolalar mavzuga befarq qaramasliklarini ta'minlash kerak bo'ladi.

Namuna. Tarbiyachining shaxsan o'zi namuna bo'lishi bolalarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular bolaning darsda va hayotda o'zini qanday tutishini, atrofdagi kishilar bilan qanday

muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar. Bolalar oiladagi kattalarning, atrofdagilarning xulq-atvoriga ham taqlid qiladilar, ulardagi ijobiy yoki salbiy hislatlarni o'zlariga singdirib olishlari mumkin. Shuning uchun kattalar bolalar yonida doimo e'tiborli bo'lishlari, har qanday holatda ham o'zlarini tutishlari lozim.

Turli allomalar, ilg'or kishilar hayoti va faoliyatidan olingan yorqin ma'lumotlar, badiiy asarlar, filmlardagi qahramonlar xatti-harakatidagi yaxshi namunalar bolalarning ongiga kuchli ta'sir qiladi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida turli kasblarning ilg'or vakillari, mashhur kishilar, sportchilar, san'atkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazish juda yaxshi samara beradi, bolalar shu kishilarga o'xshashga intiladilar, ularga taqlid qiladilar. Tarbiyachi va ota-onalar, jamiyatdagi katta kishilar har tomonlama yoshlarga ibrat bo'lishga arziguli bo'lishlari hozirgi kun talabidir. (quyidagi chizmaga qarang)

O'quvchilarda xalq og'zaki ijodi namunalari asosida odob-axloq, urf-odatlar, marosimlar shaklida namoyon bo'ladigan qadriyatlarni singdirish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega.

Yaxshilik, halollik, poklik, xayrixohlik, hamkorlik, sodiqlik udumlariga asoslangan munosabatlarda namoyon bo'ladigan muhim qadriyatlarimiz ham bor.

Estetik qadriyatlarga birinchi navbatda, barcha tabiiy va ijtimoiy go'zalliklar kiradi.

Barcha davlatlarda **inson** eng oliy qadriyat hisoblanadi. Bizda inson ulug'lanadi, u hamma narsadan ustun turadi, hamma narsa inson uchun xizmat qilishi lozim.

Milliy qadriyatlar ayrim xalq va millatlar tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarning yig'indisidan iborat. Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-tarixiy hodisa bo'lib, millatning tili, madaniyati, tarixi, udumlari, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklari, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotini har tomonlama qamrab oladi. Milliy qadriyatlar turkumiga insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan umumbashariy muammolar ham kiradi. Ularning asosiylari yer yuzida ilm-fanni taraqqiy ettirish, tinchlikni saqlash, yadroviy qurollar poygasini to'xtatish, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, turli kasalliklarning oldini olish, tabiatni muhofaza qilish, qashshoqlik va savodsizlikka barham berish, sanoat xom ashyosi, energiya manbalari va oziq-ovqat bilan ta'minlash, koinotni va jahon okeani resurslarini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar kiradi.

Shunday qilib, xalq og'zaki ijodi namunalarida siyosiy, huquqiy, badiiy, diniy, estetik, falsafiy, axloqiy g'oyalar o'z ifodasini topadi.

III-BOB. XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH TIZIMI VA UNING SAMARADORLIK DARAJASI

3.1. Tajriba-tadqiqot ishlarida milliy qadriyatlarni singdirish va uning mazmuni

5-6- sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi na'munalari asosida milliy qadriyatlarni shakllantirish uchun biz tadqiqot mobaynida eng asosiy qadriyatlar: vatanparvarlik, fidoiylik sifatlarini kamol toptirishga harakat qildik. 5-6-sinflarda o'tkaziladigan mashg'ulotlarda fidoiylik, sabr-qanoat, matonat kabi fazilatlarni shakllantirish turli-tuman ko'rinishda bo'lishi mumkin.

5-6- sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi na'munalari asosida milliy qadriyatlarni shakllantirish tarbiyachi-ustozlardan katta mahoratni talab etadi. Bu jarayon har bir yosh davriga, shaxsga, har qaysi yoshlar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi.

Tajriba-tadqiqot ishlarida (2006-2008 yillar) Navoiy shaqri va viloyatining umumiy o'rtta ta'lim maktab o'quvchilaridan 176 nafari qatnashdi.

2007-2008- yillar umumlashtirish bosqichida 5-6- sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi na'munalari asosida milliy qadriyatlarni shakllantirish shakl va metodlari hozirgi kun nuqtai nazaridan ishlab chiqildi. Yoshlarda axloqiy fazilatlarni o'stirishda turli pedagogik metodlardan, jumladan: ijtimoiy ongni shakllantiruvchi uslublar; faoliyat jarayonida ijtimoiy ongni va tajribalarni shakllantirish uslublari; o'zini-o'zi tarbiyalash uslublari; rag'batlantirish uslublaridan

Tekshirilishi lozim bo'lgan boshlang'ich faraz, ya'ni 5-6-sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi na'munalari asosida milliy qadriyatlarni shakllantirish, ko'p jihatdan, ulardagi ma'naviy-ma'rifiy bilimlari kengaytirilganda amalga oshirilishidan iborat edi. Boshlang'ich faraz sifatida odatda «o'rganilayotgan tanlanmalarning natijalaridagi farq tasodifiy sabablar bilan izohlandi» va farazimiz to'g'ri ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotlarimiz mobaynida 5-6- sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi na'munalari asosida milliy qadriyatlarni shakllantirish ularning umumiy madaniy saviyasini o'stirish asosida shakllantirildi. Bu tajriba ishlarini olib borayotgan mutassadilar tomonidan maxsus turdagi pedagogik topshiriqlar, mustaqil faoliyat turlarini bajarish orqali amalga oshdi.

O'quvchilarda xalq og'zaki ijodi na'munalari asosida milliy qadriyatlarni shakllantirish tadqiqot farazidan kelib chiqqan holda qaraldi. Bu jarayonning samaradorligini oshiruvchi quyidagi tamoyillar aniqlandi va joriy qilindi:

- o'quvchi-yoshlarning milliy qadriyatlarga munosabati o'rganildi;
- o'zbek adabiyoti durdonalarida keltirilgan xalq og'zaki ijodini o'rganish ahvoli tahlil qilindi;
- guruh jamolaridagi pedagogik vaziyat tahlil qilindi;
- yoshlarning motivatsiyasi, qiziqishlarini inobatga olgan holda axloqiy fazilatlarni shakllantirish tizimi ishlab chiqildi va ularni o'zlashtirish darajasi tekshirilishi ta'minlandi;

Tadqiqotlarda o'quvchilarga taqdim qilingan topshiriqlar reproduktiv, rekonstruktiv xarakterga ega bo'lishi ta'minlandi.

O'quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlar mezon va ko'rsatmalari nazariy- uslubiy jihatdan ishlab chiqilgan tadqiqot tizimi mazmunining xususiyatlari jihatidan belgilandi.

5-6- sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi na'munalari asosida milliy qadriyatlarni shakllantirish tarbiyaviy ish metodlari qo'llanilayotganda, tarbiyalanayotgan o'quvchi a'zo bo'lgan jamoaning xususiyatlarini, nihoyat, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladigan muayyan konkret sharoitlarni hisobga olish zarur. Shaxsning ijobiy yo'nalishini tarkib toptirish uchun yoshlarning barcha vaziyat va holatlarida to'g'ri yo'l tutishi uchun uning nima qilishni bilishi, o'zi hurmat qiladigan kishilarning nima qilayotganliklarini ko'rishi va o'zi ham to'g'ri xulq-atvorli bo'lishga mashq qilishi zarur.

Yoshlarda bilimlar - axloqiy tasavvurlar va tushunchalarining muayyan sistemasini kamol toptirmasdan turib xaqiqiy e'tiqodlarni tarkib toptirib bo'lmaydi. O'z - o'zidan bu bilimlar axloqiy xulq - atvorni belgilamasdan turib, unga muhim ta'sir ko'rsata olmaydi.

Shaxsning ijtimoiy yo'nalganligi, ma'rifiy mukammallikka intilishi kabi insoniy tuyg'ularni kamol toptirish zamonaviy pedagog, psixologlarning diqqat-markazidagi vazifadir.

Pedagogik vaziyatlarni oqilona baholash, ularning umumiy shakllarini, uslublarini bilishni talab qiladi. Bu tarbiyachidan metodologik, nazariy, uslubiy, texnologik bilimlar bilan qurollanishni taqozo etadi va yoshlarda ma'naviy-ma'rifiy sifatlarni shakllantirish nazarda tutiladi.

Shunday kilib, tadqiqot dasturi asosida tajribalarni rejalashtirish, tashkil etish, uning mazmuni, metodikasi ishlab chiqildi.

Bosqichma-bosqich ishlab chiqilgan pedagogik asoslarda aniq materiallarda empirik tadqiqotlarda belgilangan natijalarga erishildi.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda (2006-2007, 2007-2008) o'tkazilib, unda 176 nafar o'quvchilar qatnashdilar.

O'quvchilarda birinchi navbatda, milliy qadriyatlariga ma'naviy qiziqishlari va ehtiyojlarini rivojlantirish, bu borada tushuncha berish, shaxsning ma'naviy rivojlanishi haqida buyuk Sharq allomalarining ma'naviy madaniyatga oid qarashlarini tahlil qilish; xalq og'zaki ijodi durdonalariga o'quvchilar qiziqishlarini oshirish, motivatsion, ijtimoiy-shaxsiy, emotsional tasavvurlarini kengaytirish ko'zda tutildi.

DjqMQO'fQB(5,96)

Tajribaviy darslarda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini kengaytirish ko'p jihatdan o'kituvchi mahoratiga bog'liq bo'ldi. Bu o'rinda o'quvchining motivatsiyasi, ya'ni shaxs hatti-harakatini yuzaga keltiruvchi ichki haraktlantiruvchi kuch, hissiyotni boshqarishga harakat qilindi. O'qituvchi 5-6- sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi na'munalari asosida milliy qadriyatlarni shakllantirishda har bir dars maqsadi va mazmuniga mos keladigan motivatsiya ma'yorini aniqlab olishi lozim bo'ldi.

Qo'yida o'tkazilgan tarbiyaviy tadbirlardan namunalar keltiramiz. Bu tarzda o'tkazilgan ertaliklar o'quvchilarni milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasiga sodiqlik ruhida tarbiyalashga ham zamin yaratadi.

**Mavzu: « Vatanni sevmog' iymondandir»
(5-сиф)**

O'qituvchi:

Vatan, mening onamsan, issiq quchog'ing,

Olamda yagonamsan, aziz tuprog'ing,
Tarixing juda uzoq, mashhur jahonsan,
Amur Temur Vatani-buyuk Turonsan!

Erking o'z qo'lingdadur, bo'lding ozod, hur,
Baxt qo'yoshi istiqlol, sochgay shu'la-nur.

Xumo qushi boshingda aylaydi parvoz,
Yangrar har tong Madhiya- elim jo'r ovoz!

O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi yangraydi.

Boshlovchi:- 1991 yil 1 sentabr O'zbekiston mustaqilligi kuni. 1991 yil 29
dekabrda O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti etib Islom Karimov saylandi. Islom
Karimov davlatimizning bozor munosabatlariga o'tish modelini ishlab chiqdi.

1- o'quvchi: -«Oliy Majlis. . . qonun chiqaruvchi oliy organ bo'lmish O'zbekiston
Respublikasining oliy majlisi 1994 yil, 25 dekabrda tashkil bo'ldi. Oliy Majlis 250
deputatdan tashkil topgan, uning tarkibida 12 qo'mita mavjud. Vatanimiz
o'z gerbi va bayrog'iga ega.

«Ozod elning o'g'liman» qo'shig'i yangraydi.

2- O'quvchi:-gerb. . . O'zbekiston Respublikasi davlat gerbi Oliy Kengash 1992 yil, 2-
iyul kuni tasdiqlagan. Gerbning yuqori qismida xalq jipsligining ramzi sifatida
sakkiz qirrali yulduz musulmonlarning qo'tlug' ramzidir. Gerb markazida himmat,
oliyjanoblik va go'zallik ramzi- Xumo qo'shi tasvirlangan. Ushbu ramz va timsollar
xalqimizning tinchlik, baxt-saodat, farovonlik yo'lidagi orzu- umidlarni ifodalaydi.
Gerbda tasvirlangan gullagan vodiy, quyosh, o'ng tomonda bug'doy boshloqlari,
so'l tomonda paxta chanoqlari- boyliklarimizning ramzidir.

Boshlovchi:-qo'lingizga Vatanimiz gerbini olingda, hayolingizni jamlab, unga mehr ko'zi
bilan tikiling, nazaringizda undagi chiroyli qo'sh go'yo jonlanib ketadi . . .

3- O'quvchi:- Xumo qushi-Men baxt qushi-Xumoman,
Xumo qushi: Ko'p yurtlarni kezdin. Sening Vatanning xuddi ertaklardagi mamlakatlarga
o'xsharkan. Shu bois yurtning sari talpinib uchdim.

Boshqalar:- Biz gerbda non, nasiba, qut-baraka ramzi bo'lib o'rin olganmiz.

4- O'quvchi:- Paxtaoy-bizlar Vatanning milliy boyligi, guyo ishonch yorlig'imiz. 5- o'quvchi:- quyosh- Bu yurt mening yurtim. Nurlarimni mo'l-ko'l sochgum. Har tong baxt eshiklarin ochgum.

5- 1-2 O'quvchilar: Amu va Sirdaryo-yurt bir tan bo'lsa, bizlar esa tomirda oqqan qonmiz.

3- O'quvchi:- Oymomo:-Gerb uzra turibman, men bilan osoyishta osmoningiz.

4- O'quvchi:- Zuhro yulduzi: Mening ishim yo'l ko'rsatmoq, adashmas hech karvoningiz! «Xumo qushi»g'i yangraydi.

Boshlovchi: Hurmatli, aziz bolalar, mehmonlar, o'stozlar!. Mustaqil, kelajagi porloq Vatanimiz-O'zbekiston haqida qancha gapirsak, kuylasak ham oz. Vatanni seving, asrang, ardoqlang!

Tajriba davomida Navoiy shahridagi 11-12 maktablarining o'quvchilari orasida «Ertaklar yaxshilikka etaklar», «Maqollar olamida», «Donishmandlar so'zlaganda» kabi tadbirlar o'tkazildi. Tadbirlar natijalaridan shu narsa aniqlandiki, tizimli tarbiyaviy ishlar olib borilganda, kichik maktab yoshidagi bolalarda mas'uliyat hissi oshadi. Ularda matonat, fidoiylilik, sabr-qanoat kabi fazilatlar shakllanadi.

Shunday qilib, o'quvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tarbiyalash ularda fidoiylilik, sabr, matonat kabi fazilatlar ruhida tarbiyalash avvalambor, tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish hamda tarbiya jarayonining metodlarini oqilona tanlay olish bilan belgilanadi. Bu o'rinda oila, maktab, mahalla, keng jamoatchilik ahlining faoliyati o'yg'unlashgan holda olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

5-6 sinf o'qituvchilarida fidoiylilik, sabr-qanoat matonat kabi fazilatlarni shakllantirishda optimal pedagogik-psixologik vaziyatlarni tashkil qilish, fanlararo integratsiyalashuv jarayonini ta'minlash jarayonida taqdim qilinayotgan materiallarning sifat ko'rsatgichini oshirish lozim.

5-6 sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi orqali fidoiylilik, matonat, sabr-qanoat kabi fazilatlarni shakllantirishda darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning va sinf rahbarining o'rni ham o'ziga xosdir. «Xalq og'zaki ijodi mening hayotimda», «Ertaklar yaxshilikka undaydi», «Yaxshi so'z- jon ozig'i » va shunga o'xshash boshqa ko'plab mavzularda bellashuvlar, tarbiyaviy soatlar, ko'rik-tanlovlar o'tkazish orqali xalq og'zaki ijodini chuqur o'rganishga undaldi. Bundan tashqari tajriba-tadqiqotlar davomida o'quvchilarga topishmoqlarni qanday tuzish mumkinligini tushuntira olish tajriba o'qituvchisining diqqat markazida bo'ldi.

Topishmoq- sirli, muammoli, tilsimli, tushuntirib bo'lmaydigan jumboq bo'lib, kishidan butun iroda, tasavvur va tushuncha, bilimlarini ishga solgan holda yechimini topishga undaydi.

O'quvchilarning hayotiy, tajriba va tushunchalari, nazariy bilimlari atroflicha rivojlangan taqdidagina, kerakli maqsadga erishishimiz mumkin. Xalqimiz tomonidan to'qilgan va shu vaqtgacha aytilib kelinayotgan topishmoqlar ixcham, sirli, muraakab va ayni vaqtda nihoyatda sodda. Masalan "Tap-tap etar, tagidan karvon o'tar" yoki "Bir o'ra, bir o'rada ming o'ra" topishmoqlarini oladigan bo'lsak, ularning mazmunida nima ifodalangan? Birida elak, ikkinchisida g'alvir to'g'risida so'z boradi. Agar shu o'rinda o'quvchilar g'alvirning nima ekanligini bilishsa, javobni to'g'ri topishadi. Agar ko'rmagan bo'lishsa, javobini topisha olishmaydi. Demak, biz hozirgi zamon sharoitidan kelib chiqqan holda topishmoqlar tuzish va javoblarini mumkin qadar o'quvchilar topa oladigan bo'lishiga erishilg'imiz lozim. Shuni qayd etish lozimki, o'quvchilar kattalardan farqli o'laroq topishmoqlarni sodda tilda tuzishning uddasidan chiqadilar, faqat biz ularga kerakli to'rtki bermog'imiz lozim. Masalan, "O'zi sariq, dumaloq, belbog'lari yam-yashil" (handalak), "Chiq-chiq etar, o'xlab qolsang uyg'otar" (soat) kabi topishmoqlar o'quvchilardan ikki xil tushunchani-birisi poliz ekinlari bo'yicha ikkinchisi esa texnikaviy bilimlarini sinab ko'rishda qo'l keladi. Dastlab, o'quvchilar bilan topishmoq to'qishga kirishishdan oldin, O'qituvchi yoki boshlang'ich sinf o'qituvchisi biror bir yaxlit mavzu yuzasidan (masalan, oziq-ovqat yoki parrandalar va hokazo) suhbat o'tkazib, kerakli tushunchalarni beradi. Shundan so'ng o'zida ana shu belgilarni mujassamlashtirgan topishmoqlar tuzish lozimligini o'quvchilarga o'qtirish kerak bo'ladi.

Ba'zan o'quvchilar topishmoqni topa olmasalar, pedagog yo'naltiruvchi ko'rsatmalar berib bordi.

Umuman aytganda, sinfdan tashqari tajribaviy mashg'ulotlarda xalq og'zaki ijodi materiallari har tomonlama barkamol, ma'naviy dunyosi keng, davr talabiga mos bilim va malakalar bilan qurollangan, yangiliklarni tez anglab oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirishga qaratildi.

Xalq og'zaki ijodini o'rganishning eng muhim shartlaridan biri o'quvchilarning xalq og'zaki ijodi namunalariga qiziqishlarini, qanday xalq dostonlarini o'qishga ishtiyoqmandliklarini aniqlashdir. Shundan keyingina sinfdan tashqari o'qishni ma'lum bir maqsad sari yo'naltirishi mumkin. O'quvchilarning xalq og'zaki ijodiga qiziqishlarini aniqlashda turli usullardan anketalarni to'ldirish, yakkama-yakka va jamoa suhbatlari uyushtirish, ota-onalar bilan izchil va muntazam suhbat o'tkazish, maktab kutubxonachisining o'quvchi haqidagi fikrlari, sinf rahbarining o'quvchilar mutolla qilgan

kitoblar haqidagi malumotlar va o'quvchilar bajargan ijodiy ishlarning tahlilidan foydalaniladi.

Sinf rahbari va adabiyot o'qituvchisi anketa bilan cheklanib qolmay, o'quvchilarning mustaqil ijodiy tafakkurini aniqlashlari, xalq og'zaki ijodi haqidagi bilim va tushunchalarini chuqurlashtirishlari, ularni mustaqil ijodiy ishga o'rgatishlari lozim, va buning uchun o'quvchilarga quyidagi mazmunda uy insholari yozdirishlari mumkin: "Men sevgan ertak qahramonlari", "Men yoqtirgan milliy taomlar", "Navro'z-bahor bayrami", "Xalq o'yinlariga nimalar kiradi", "Nima uchun men xalq dostonlarini yoqtiraman" va h.k.

3.2. Tajriba-tadqiqot ishlarining samaradorlik natijalari

Tajriba-tadqiqot mobaynida, bir necha oy davomida, so'rov varaqalari yordamida, suhbatlar natijasida olingan javoblar, kuzatilgan darslar tahlili asosida o'qituvchilarning tadqiq qilinayotgan masalaga nisbatan bir necha xil nuqtai nazari mavjudligi xamda ular o'z usullari, o'ziga xos metodikalarga asoslanishlari aniqlandi.

Kuzatilgan 40 dan ziyod darslarda o'qituvchilarning xalq og'zaki ijodi namunalari orqali milliy qadriyatlarni o'quvchilarga singdirish masalalariga yuzaki murojaat etayotganliklari (26 soat dars), mavzularga qisman yondashuv borligi aniqlandi. Bir kator o'qituvchilarning fikricha, 5-6- sinf o'quvchilarida eng avvalo kuchli bilim bo'lishi lozim,-degan fikr mavjudligi aniqlandi. Faqatgina 12 ta darsda xalq og'zaki ijodi namunalari orqali milliy qadriyatlarni o'quvchilarga singdirishga alohida e'tibor berilishi kuzatildi. Shunday darslardan biri Navoiy shahridagi 11-umumiy o'rta ta'lim maktabining adabiyot o'qituvchisi M. Sharipovanning 5 – sinf o'quvchilari orasida "Maqollar va topishmoqlar" mavzusiga bag'ishlangan darsi bo'ldi. O'qituvchi tomonidan xalq og'zaki ijodi namunalarida keltirilgan ibratlar, odob-axloq masalalarining talqin qilinishi, ulardagi g'oyalarning ijodiy davom ettirilganligiga misollar keltirib, jonli tarzda tushuntirib berildi.

Darsni jihozlashda O'zbekiston rassomlari tomonidan xalq og'zaki ijodi namunalari aks ettirilgan suratlardan, sharqona musiqadan foydalanildi.

Dars suhbat, ma'ruza usullaridan foydalangan holda olib borildi, shuningdek, o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning fikrlarini ham hisobga oldi, ularni fikrlashga, mulohaza yuritishga jalb etdi.

O'qituvchi o'quvchilarning olgan bilimlarini eslatish maqsadida ular bilan suhbat uyushtirdi, javoblarni eshitib yakun yasadi. O'qituvchi asarlardagi nazm va nasrning uyg'un ekanligi, payg'ambarlar hayotiga oid qissalarda "Qur'on" syujetlari va "Hadislar" dagi g'oyalarning ijodiy davom ettirilganligi, qissalarning yaratilishida xalq og'zaki ijodining ta'siri, asarning

mavzu qamrovi asosan tarbiya, odob, ahloq, insoniy fazilatlarni o'z ichiga olishi bilan o'ziga xos bir asar sifatida ajralib turishini ko'rsatishga muvaffak bo'ldi. Asardagi qissa va hikoyatlar kompozitsiyasi rang barangligi tufayli, "Dovud qissasi", "Luqmon hikoyati", "Qum hikoyasi", "Namrud hikoyati", "Sulaymoning qarinchg'a bilan so'rashgani", "Ilon Qarlug'och" hikoyatidagi qiziqarli, ajoyib voqealar o'quvchilarga ko'p jihatdan ibrat bo'ladi, ularni faqat ezgu ishlarga, kishilarga yaxshilik qilish, ilm – hunar o'rganishga, sabr – toqatli, bo'lishga, mehnatsevar, haqiqatparvar, iymon – e'tiqodli, yurtparvar insonlar bo'lishga da'vat etadi. Qissalarda asosan ezgulik va to'g'rilikning talqin qilinishi, ularni qiziqib mutoalaa qiladigan yoshlarimizga faqat ijobiy ta'sir ko'rsatishi tabiiydir. Yana shunday darslardan biri Navoiy shahridagi 12- umumiy o'rta ta'lim maktabining ingliz tili o'qituvchisi Nigora Ochilovanning 6-sinf o'quvchilari bilan o'tkazgan adabiyot darsida kuzatildi. Dars quyidagicha tashkil etildi.

Mavzu: "Ahmad Yassaviy "Hikmatlar"ida insonparvarlik g'oyalarining aks ettirilishi".

Darsning maqsadi: Ingliz tilida keltirilgan Ahmad Yassaviy "Hikmatlar"i asosida o'quvchilarda xalq og'zaki ijodiga qiziqishni uyg'otish, axloqiy madaniyatni tarbiyalash, ularga tasavvuf ilmidan ma'lumot berish.

Darsni jihozlashda o'qituvchi Ahmad Yassaviy qadamjolari xaritasi, Ahmad Yassaviy hayoti va ijodiga oid sinxronologik jadvallardan foydandi. Darsda suhbat, ma'ro'za, munozara usullaridan foydalanildi. O'qituvchi o'tgan mavzularni eslatish maksadida: Ahmad Yassaviy hayotiga oid qanday ma'lumotlarni bilasiz? Uning asarlaridan yod bilasizmi? Yassaviyning dunyoqarashi haqida nimalarni bilasiz? -singari savollar bilan o'quvchilarga murojaat etdi. O'qituvchi o'z ma'ro'zasini bayon etishda N.M Mallaevning "O'zbek adabiyoti tarixi" G'.Abduraxmonov, S. Mamajonovlarning "O'zbek tili va adabiyoti", shuningdek, Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar" kitobidan foydalangan holda mashg'ulotini olib bordi.

Dars jarayonida o'quvchilar Ahmad Yassaviyning birinchi bo'lib turkiy tilda "Devoni hikmat" asarini yozganligi, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida va ijtimoiy fikrlar rivojida o'zining katta mavqega ega bo'lgan buyuk shoir, tasavvuf ilmining yirik namoyondasi sifatida tan olinganligi tugrisidagi ma'lumotlarga ega bulishdi.

"Yorug' dunyo harom qilib, Haqni suydim"- deb yozgan fikrini o'quvchilar taxlil kilishga kirishib, buyuk tasavvufchi xalqdan, dunyo tashvishlari, jumboqlaridan o'zini olib qochmaganligini dunyodagi adolatsizlik, haqsizlik. yomonliklarni rad etganligi, shuning uchun ham butun borlig'i bilan Olloh bilan birga bo'lishni, unga etishishni orzu qilganligini asoslab berishga xarakat kildilar. Darsning yakunida Yassaviyning Allohga cheksiz muhabbati va unga etishish uchun astoydil intilishi, xaqsevarligi, adolatparvarligi, poklik va go'zallikka tashnaligi, ruhiy erkinlik va barkamollikka intilishi so'fiylikning bosh fazilatidir,-degan xulosaga kelindi.

Yassaviy insonni Alloh sifatleri mezoni bilan o'lchaydi, shu tufayli uning fazilatlari va

qusurlarini teran tahlil etadi. Bunda muqaddas Qur'on va hadislar asosiy o'lchov mezoni, tosh – tarozu bo'lib xizmat qiladi.

Dars so'ngida o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan Yassaviy hikmatlaridan namunalari o'qildi. Yassaviy hikmatlari o'quvchilarda vatanga muhabbat, insonlarga to'g'ri munosabat, adalatparvarlik, haqiqatparvarlik singari axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda mahim manba bo'la oladi, bu esa o'qituvchining dars davomida o'quvchilarning javoblarida, fikrlarida sezilib turdi.

Kuzatilgan darslar davomida tajribali o'qituvchilar mumtoz adabiyotimiz vakillari Nosiriddin Rabg'o'ziy, Ahmad Yassaviy, Pahlavon Mahmudlarning hayoti va ijodiga bag'ishlangan xalq og'zaki ijodi namunalariga to'xtalgan holda, bu ijodkorlarning dunyoqarashi, asarlarining mazmuni, g'oyasi bilan bog'liq qirralarni ochishga, ular ijodi orqali yuksak ma'naviyatli, komil inson tarbiyasiga oid fikrlarni yoritishga va shu orqali materialni o'quvchilarga etkazishga harakat qilganliklarining guvohi bo'ldik. Bu ijodkorlarning asarlari orqali iymon, diyonat, fidoiylik, vijdonlilik, mehr-shafqatlilik, poklik va halollik, rostgo'ylik singari fazilatlarni yoshlar kalbiga singdirishga muvaffak bulinadi. Ko'zatishlar shuni ko'rsatdiki, tabiiy fanlar yo'nalishi bo'yicha uch yillik bosqichda 200 akademik soat, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlari bo'yicha 240 soatlik dastur, o'quv rejasi belgilangan. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar jarayonida tadbirkot doirasida ish shakllarining eng qulay usullaridan foydalanishni takozo etdi. Shu maksadda turli-tuman davra suxbatlari, breyn-ringlar, debatlar, mushoiralar, she'riyat kechalari, g'azalxonlar bellashuvlari bahru-bayt aytishuvlari, ijodkorlar hayoti va ijodiga doir kompozitsion kechalar tashkil etildi.

O'qituvchining izlanuvchanligi, ijodkorligi, oz vaqt, kam kuch sarflab yuqori natijalarni ta'minlashida, shuningdek, o'quvchilarning ma'naviy madaniyatini tarbiyalash samaradorligini oshirishda yangi pedagogik texnologiya va interaktiv ta'lim metodi muhim omil hisoblanadi.

Ikkinchidan, ilmiy-izlanuv, boshqaruv tajribasini tahlil qilishga mo'ljallangan o'yinlar taqdim qilish.

Fikrimizcha, xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali o'quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirish jarayonida pedagogik texnologiyalar uzluksiz ta'lim turlarining ayrim belgilari va mavzu maqsadidan kelib chiqqan holda turkumlashtirilishi muqarrar.

Bir qator olimlarning fikrlaricha (S. Skatkin, K. Lerner, J. G'aniev, R. Mavlonova, U. Nishonaliev) asosiy qo'llaniladigan metod bo'yicha pedagogik texnologiyalar quyidagi turlarga ajratiladi:

Dogmatik, reproduktiv ;

Tushuntirish, ko'rgazmali;

Rivojlantiruvchi;

Muammoli, izlanishli.

Ijodiy va boshqalar.

Ular qatoriga:

Dasturlashtirilgan;

Bahs-munozarali ;

O'z-o'zini rivojlantiruvchi;

Axborotli (kompyuterli) va boshqalarni kiritish mumkin.

Tashkiliy shakllariga ko'ra esa :

- an'anaviy;

-shaxsga yo'naltirilgan pedagogik jarayon asosidagi pedagogik texnologiyalar;

-o'quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi pedagogik texnologiyalar.

-o'quv jarayonini boshqarish va tashkil qilish samaradorligi asosidagi pedagogik texnologiyalar.

Bilish faoliyatini boshqarish bo'yicha o'quvchilarda ma'naviy madaniyatni tarbiyalash texnologiyalarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Didaktik yo'naltirilgan;

Pedagogik yo'naltirilgan.

Shaxsga yo'naltirilgan.

Insonparvarlikka va shaxsga yo'naltirilgan.

Hamkorlik texnologiyalariga yunaltirilgan.

Ekologik tarbiyaga yo'naltirilgan.

Dasturlashtiriladigan boshqaruv;

Texnika vositalari yordamida o'qitish;

Darslik bo'yicha o'qitish;

Kichik guruxlarda o'qitish tizimi;

Kompyuter yordamida o'qitish;

Repetitor tizimi va boshqalar;

Tushuntirish— axborotning ma'no-mazmunini, undan foydalanish tartibini turli vosita va uslublarni qo'llab, tushuntiruvchining o'zi tushungan darajada o'quvchilarga etkazish faoliyatidan iborat jarayon.

Tushunish— axborotning ma'no-mazmunini idrok qilish, undan ko'rsatilgan tartibda mustaqil foydalana olish.

O'rgatish— ma'naviy madaniyatni tarbiyalashga oid axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko'nikmalarini o'rgatuvchining o'zi o'rgangan darajada boshqalarning takrorlay olishini turli vosita va usullarni qo'llab amalga oshirish faoliyatidan iborat jarayon.

O'rganish— axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash.

O'zlashtirish— tushunish, o'rganish orqali axborotning ma'no-mazmuni, undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to'g'risida bilim va ko'nikmalar hosil bo'lishi.

Shu bilan birga pedagogik texnologiyalarning hammasida ham birdek qo'llaniladigan va ta'lim-tarbiya jarayonining tarixiy tarkib topishida va rivojlanib borishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan asosiy tarkibiy elementlar so'zlash, ko'rsatish va mashqlar bajarishdan iborat bo'ladi.

Olingan natijalar Styudent-Fisher mezonida matematik-statistik tahlildan o'tkazildi.

Matematik-statistik tahlil o'quvchilarda milliy qadriyatlarga qiziqish va xalq og'zaki ijodi namunalariga qiziqishni orttirish ko'rsatkichlari bo'yicha nazariy va amaliy bilim darajalari yuzasidan qo'llanildi. Tajriba-sinov ishlarida jami 176 nafar o'quvchi-yoshlar qatnashdi. Matematik-statistik tahlil qilish uchun reprezentativlik asosida milliy qadriyatlarga qiziqish bo'yicha nazorat guruhida 88 ta va tajriba guruhida 98 o'quvchida va ehtiyojlarining shakllanganlik ko'rsatkichlari bo'yicha nazorat guruhida 93ta va tajriba guruhida 93 o'quvchilarning nazariy va amaliy bilimlari tahlil qilindi. Uni quyidagi jadvallarda ko'rish mumkin.

5-6- sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi na'munalari asosida milliy qadriyatlarni shakllantirish ko'rsatkichlari

3.3.1.-jadval


Guruhlar	O'quvchilar soni	Javoblar soni					
		86-100 ball	% da	“71-86 ball	% da	56-71-ball	% da
Tajriba	98	51	52	38	38,1	9	9,9
Nazorat	88	18	17,5	22	30,8	43	41,7

3.3.2-jadval


Guruhlar	O'quvchilar soni	Javoblar soni
----------	------------------	---------------

		86-100 ball	% da	71-86 ball	% da	56-71 ball	% da
Tajriba	93	46	37,7	29	19,9	12	12,4
Nazorat	93	23	30,8	27	15,3	27	43,9

Bularni diagrammada - 1,2-rasmlarda ifodalasak:



1-rasm



2-rasm

Student-Fisher formulas for 5-6 grade students in folk and national creative samples:
 $\bar{X} = 4,3$; $\bar{Y} = 3,8$; $\bar{X} = 4,5$; $\bar{Y} = 3,9$; $\bar{X} > \bar{Y}$;

Topical results from variance analysis, average quadratic deviation and variance are presented.

D_m	D_n	τ_m	τ_n	δ_m	δ_n
0,45	0,54	0,67	0,74	0,16	0,19
0,5	0,74	0,71	0,86	0,16	0,22

Results from the experiment and control groups are presented using the following formula for confidence intervals:

$$\bar{X} - t_\gamma \cdot \frac{D_m}{\sqrt{n}} \leq a_x \leq \bar{X} + t_\gamma \cdot \frac{D_m}{\sqrt{n}} \qquad \bar{Y} - t_\gamma \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}} \leq a_y \leq \bar{Y} + t_\gamma \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}}$$

5-6 grade students in folk and national creative samples are presented based on national values and their distribution:

$$4,3 - 0,08 \leq a_x \leq 4,3 + 0,08$$

$$3,8 - 0,09 \leq a_y \leq 3,8 + 0,09$$

$$4,22 \leq a_x \leq 4,38$$

$$3,71 \leq a_y \leq 3,89$$

Shunday qilib, tajriba-sinov ishlarining natijalariga ko'ra nazariy va amaliy bilim darajalari samarali natija berdi.

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lum buldiki, tajriba guruhida 5-6- sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi na'munalari asosida milliy qadriyatlarni shakllanganlik darajasi nazorat guruhidagilardan yuqori.

Demak, tajriba guruxlarida 5-6- sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi na'munalari asosida milliy qadriyatlarning shakllanganlik ko'rsatkichlari bo'yicha nazariy va amaliy bilim darajalari yuzasidan olingan yakuniy natijalar samarador ekan.

UMUMIY XULOSA

O'tkazilgan nazariy-eksperimental tadqiqotlar va olingan natijalar tahlili quyidagi xulosalarga kelishga asos bo'ldi:

1. O'rganilayotgan muammoning dolzarbligi davlat ta'lim siyosatida 5-6- sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi na'munalari asosida milliy qadriyatlarni shakllantirish davr talabi sifatida qaralishi, unga yangi ma'no, yangi mohiyat va mazmun kasb etdi.
2. Tadqiqotda o'rganilayotgan muammoning zamonaviy metodologiyasini o'rganish amalga oshirildi, uning nazariya va amaliyotdagi holati tahlil qilindi.
3. Muammoning pedagogik jihatlarini o'rganish va aniqlash hisobiga tadqiqotning maqsadiga erishish vazifasi hal etildi: qo'yilgan muammoni hal etish uchun ishlab chiqilgan pedagogik asoslarni amaliyotda tizimli, majmual, integratsiyali, ketma-ket amalga oshirishga imkoniyat yaratildi. Ishlab chiqilgan pedagogik tizim modeli hisobiga ijtimoiy-shaxsiy motivlar, o'quvchilarning idrok etish faolliklari, ehtiyojli-idrok etish, badiiy-tahliliy, intellektual-ijodiy va ijtimoiy faoliyatda estetik ehtiyoj darajasini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Tadqiqot maqsadiga erishish va vazifalarni hal etishga nazariy-pedagogik va amaliy asoslar yordam berdi, jumladan, maqsadni belgilash va mazmunini modifikatsiyalashtirish jarayonning funktsiya va tamoyillari, uni insonparvarlashtirish va gumanitarlashtirish omillari va sharoitlari, qonuniyatlar tizimi to'liq inobatga olindi.

“O'zbek xalq pedagogikasi”ga taalluqli bo'lgan **xalq og'zaki ijodi** qamrovi nihoyatda keng, bog'oyat serqirra va serjilo tushuncha bo'lib, u shu xalq paydo bo'lgan butun davrni o'z ichiga oladi.

Xalq donishmandligi va odobnomasiining bu nodir sohasi ijtimoiy va maishiy-axloqiy hayotning barcha tomonlarini, xalq og'zaki, qadrshunosligi va marosimshunosligining yetakchi yo'nalishlarini, diniy-axloqiy ta'limotni qamrab olishi bilan xarakterlanadi. U xalqimizning asrlar davomida to'plangan boy tajribalarini, ijtimoiy – siyosiy, axloqiy, falsafiy, ma'rifiy, estetik, ma'naviy hamda jismoniy yetuklik borasidagi qarashlarini, tajriba-xulosalarini lo'nda, ammo bag'oyat teran, donishmandnamo tarzda ifodalaydi. Ilk bor yaratilayotgan “O'zbek xalq pedagogikasida” dono xalqimizning ta'lim-tarbiya, axloq, odob, inson qadriyatlari va uning ma'naviy ustivorligi, iymon-e'tiqodi butunligi sohasidagi dunyoqarashi, amaliy faoliyati, usul-metodlari, an'analari tabarruk islomning odob-axloq, ilmu-fan haqidagi ta'limotiga bog'liq holda, muqaddas qur'oni Karim va payg'ambarimiz Muhammab Rasullohning muborak hadisi shariflariga suyangan holda yoritish mo'ljallangan.

Mustaqillikka erishib, o'zimizning yorqin milliy istiqlolimizga ega bo'lgach, umuminsoniy va o'zbekona qadriyatlarni har tomonlama chuqurroq anglay boshladik. Mustaqil Vatanga har tomonlama yetuk, mukammal, axloqiy pok, ma'naviy ustuvor, iymon-e'tiqodi butun, o'z xalqi, o'z ona-Vataniga fidoiy, jismoniy barkamol kishilar yetkazish uchun ularning axloqiy-jismoniy tarbiyasiga alohida ahamiyat bera boshladik. Darxaqiqat,

Vatan taqdiri, xalq ravnaqi, mustaqil yurtning kelgusi boshqaruvchisi-yangi avlob tarbiyasi birinchi o'ringa chiqdi. Juda qiyin, o'ta mas'uliyatli, katta g'ayrat-shijoat, kuch-quvvat, mehnat talab qiladigan bu vazifani uddalashimizda og'zaki ijod, mumtoz va hozirgi eamon adabiyoti, elshunoslik, udumshunoslik, qadrsunoslik, marosimshunoslik qatorida xalq pedagogikasining o'rni va roli beqiyosdir. Xalq pedagogikasi hayotning, tafakkurning, odob-axloq, ta'lim-tarbiyaning hamma jabhasini, barcha muammolarini qamrab olishi bilan xarakterlanadi.

Biz xalq pedagogikasining sharqona va turkona an'analari, oilaviy-maishiy yo'nalishlari, xalqning o'ziga xosligining milliy to'ylarimiz, ommaviy bayram-sayllari, marosimlar, urf-odatlar va udumlarda ifodalanishi, xalq sport, jismoniy tarbiyaning tutgan o'rni, milliy maktab muammolari kabi shu kunlarda juda dolzarb, zarur va kerakli masalalar haqida qisqacha to'xtalib o'tishni lozim deb topdik.

Bular: xalq og'zaki ijodida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va tarbiya usullari, insoniy qadriyatlar va yurtsevarlik tarbiyasi; do'st birodarlik, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat, yaxshilik va yomonlikning, yaxshi va yomon so'zning oqibati, halollik, to'g'rilik, olijanoblik tarbiyasi, adolat, insof va insofsizlik, og'a-inichilik va qon-qardoshchilikning ahamiyati, botirlik va qo'rqqoqlik, odob-odobsizlik, mehmon va mehmondo'stlik aqliy va jismoniy maktab ekanligi kabi qadriyatlarimiz.

O'zbek xalq pedagogikasi an'analari, jumladanuning ajralmas qismi-og'zaki ijod namunalariidagi odob-axloq, ta'lim-tarbiya borasidagi pandnomalar bog'oyat hayotiy, xalqchil va ibratlidir. Xususan an'anaviy xalq dostonlari va ertaklari, qo'shiqlar va maqollar-odobnoma darslari ekanligini, folklorning boshqa katta-kichik janrlari boshdan-oyoq pandnomaligini unutmasligimiz kerak.

Xulosa tariqasida shuni alohida ta'kidlab o'tishni istar edikki, "O'zbek xalq pedagogikasi" va uning asosiy manbalaridan bo'lmish og'zaki ijod-folklorning inson ma'naviy ustivorligi, iymon-e'tiqodining butunligi, vatanparvarlik, do'st-birodarlik, yaxshilik, ezgulik, ahillik, qadr-qimmat va sha'nini ulug'lovchi sahifalari rang-barangdir. Bu sahifalarning har biri Odobnoma, Ibratnoma deb baholanishga tamomila haqlidir.

Hozirgi zamon ta'lim-tarbiyasi, istiqol mavkurasi ana shu merosdan oziqlansa, uning eng yaxshi sahifalarini, qoidalarini qabul qilsa, o'z oldiga qo'ygan maqsad-vazifalarini sharaf bilan bajarishi mumkin. Chunki, xalq odobnomasi va ibratnomasining bu ikki teran, boy, serma'no, azmunli sohasi-xalq og'zaki ijodi va xalq pedagogikasi an'analari-insonni har tomonlama tarbiyalash, kamolga yetkazish, ma'naviyatlarimizning ustivor iymon-e'tiqodlarimizning butun bo'lishligini, qadrlil qadriyatlarimizning qadrlanishi garovidir.

Navoiy viloyatidagi maktablarda olib borilgan tadqiqotlarda 5-6- sinf o'quvchilarida fidoiylilik, sabr-qanoat, matonat kabi fazilatlarni shakllantirishda tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga qo'yilgan pedagogik talablar quyidagicha bo'ldi:

- Tadbirlarni o'tkazishdan oldin bolalar ruhiyati, qiziqishini o'rgandik;
- O'tkaziladigan tadbirga bolalarda qiziqish uyg'otdik;
- Tarbiyaviy tadbir rejalashtirilganda sinfdagi hamma bolalarning mazkur faoliyatda ishtirok etishini ta'minlashga muvaffaq bo'ldik;
- Tarbiyaviy tadbirda ishtirok etgan bolalar rag'batlantirildi.

Bolalar uchun «Ertaklar ezgu yo'lga undaydi», «Maqollardagi o'gitlar- ibrat namunalari», «Mardlik nima?», «Fidoiy insonlar bilan uchrashuv», «Men sevgan qaxramon», «Mening zamondoshim» va boshqa ko'plab mavzularda kechalar tashkil etdik

Shunday qilib, xalq og'zaki ijodi namunalari orqali 5-6- sinf o'quvchilariga milliy qadriyatlarni singdirish ko'p jihatdan ular uchun qiziqarli, to'laqonli, yosh jihatlariga mos hayot iqlimini yaratish, mehnat, xayriya, ijtimoiy-foydali, ijodiy-ko'ngilochar va shunga o'xshash tadbirlar tashkil etilishi lozimki, natijada bolalar sog'lom ma'nodagi ko'ngillari tusagan ishga qo'l urishga o'rganib, Vataniga, eliga sodiq fidoiy insonlar bo'lib yetishib chiqsinlar.

O'TKAZILGAN TADQIQOTLAR NATIJASIDA QUYIDAGI TAVSIYALAR ISHLAB CHIQLDI:

1. Tarbiyada milliy va milliy qadriyatlarning ustuvorligi qoidasiga alohida e'tiborni qaratish kerak. Tarbiya qoidalari murabbiy va tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalarda o'z aksini topishi va yangi, komil insonni shakllantirish vazifalari bilan belgilishi kerak.

2. Bolalarni Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati va ma'naviyati bilan tanishtirish juda muhimdir. Shuning uchun tarbiya jarayonida xalqimizning madaniy merosini o'rganish, milliy o'ziga xosligi, ma'naviy xususiyatlarini hisobga olib, xalq pedagogikasi an'alariga suyanib ish ko'rish maqsadga muvofiqdir.

3. 5-6-sinf o'qituvchilarida fidoiylilik, sabr, matonat kabi fazilatlarni tarbiyalash uchun tarbiyaviy ishlar metodikasini oqilona rejalashtirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2003.- 38 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. -T., 1997 .

3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. -T., 1997 .
4. Karimov I.A. Uzbekistan the road of independence and progress.- T., «Uzbekiston», 1992, -P. 70.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori -T.:Sharq, 1997.- 53b.
6. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari. -T., «O'zbekiston» 1997.-328 b.
7. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T.: O'zbekiston, 1999.- 73 b.
8. Karimov I.A Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., «O'zbekiston» 1998.- 78 b.
9. “Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 1998 yil 9 sentyabr Farmoni.
10. “Respublika ma'naviyat va ma'rifat Kengashini ko'llab – quvvatlash to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 1999 yil 3 sentyabr Farmoni.
11. Karimov I. A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. -T.: O'zbekiston, 1992.- 263 b.
12. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. -T.:O'zbekiston, 1996.- b.
13. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T., “O'zbekiston”, 1996.- 398 b.
14. Abu Ali ibn Sino Tadbiri manzil.- Dushanba: Irfon, 1980-420 b.
15. Abu Abdulloh Muhammad ibn al-Buxoriy. Hadis («Al-jomi' as-Sahih). 1-jild. Tarjimon Z.Ismoilov.-T: Qomuslar bosh tahririyati, 1997.- 572b.
16. Abu Iyso-at-Termiziy. Sahih Termiziy. Tarjimon Abdulhani Abdulloh.- T: Qomuslar bosh tahririyati, 1999.- 234 b.Abdullaeva Sh. A. ?quvchilarni pedagogik tashxislashda q'llaniladigan metodlar G`G` J.:Xalq ta'limi, 2003, № 3, 40-45 b.b.
17. Abdulloh Avloniy. Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom.-T.: Fan, 1994.- 293b.
18. Abduraxmonov Abdulxay Saodatga eltuvchi bilim.-T.:Movarounnahr, 2004.-708b.
19. Abdurauf Fitrat. Muxtasar islom tarixi.-T: Fan, 1993.- 172 b.
20. Alisher Navoiy. Mahbub-ul-qulub. Asarlar, 13-jild.- T.: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1966.-456 b.
21. Amir Temur o'g'itlari.- T.: Sharq, 1992.-171 b.
22. At-Termiziy .Hadislar.G`G`J.: Sharq yulduzi, 1990, 9-son.-B.45-49.
23. Ahmad Yassaviy.Hikmatlar- T.: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,1991.258 b.

24. Abdullaeva Sh. A., Axatova D. A. Sobirov B. B., Saitov S. S. Pedagogika.-T.: Fan, 2005.-294 b.
25. Bobomurodov A. Islom odobi va madaniyati. -T.:Cho'lpon, 1995.231 b.
26. Buyuk siymolar, allomalar. O'rta Osiyoning mashhur mutafakkir va donishmandlari. 1-kitob. -T.: O'zbekiston,1996.-254 b.
27. Vafoev O.Ma'naviyat taraqqiyot omili. Istiqlol va ma'naviyat.-T.:O'zbekiston, 1999.-169 b.
28. Davron A. Ma'naviyat dahosini tavof etaylik. G`G`Millat va taraqqiyot, 1999yil,1-8iyun.
29. Yo'ldoshev Q. O'zbek adabiyoti. 9-sinf uchun darslik.-T.:G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at MIU,2003.-384 b.
30. Jabborov Sh. Ma'naviyatning falsafiy qirralari.G`G` "Ma'rifat", 1996, 20noyabr.
31. Jalolov A. Mustaqillik ma'suliyati. -T.:Fan, 1994.-143 b.
32. Zununov A. Pedagogika tarixi.-T.: O'zbekiston, 2005.-342 b.
33. Zunnun Sh. Donishmandlar odob-axloq to'g'risida. -T.:O'zbekiston, 1996.-95b.
34. Kaykovus. Qobusnoma. -T.: O'zbekiston, 1989.- 176 b.
35. Mahmudov T. Komillik asrorlari.- T.: Adolat, 2006.-95b.
36. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-T.:O'qituvchi, 1996.-206 b.
37. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. –T.: Fan, 1993.-121 b.
38. Norboy Ortiqov. Yosh avlodni muqaddas g'oyalar ruhida tarbiyalash bo'yicha tavsiyalar.- T.Universitet, 1995.-124 b.
39. Nosirxo'jaev S., M.F.Lafasov, M.Z.Zaripov «Ma'naviyat asoslari».- T.: Fan, 2002.- 264 b
40. Saifnazarov I. Bozor iqtisodiyoti va shaxs kamoloti. -T. 1996.-b.
41. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.- T.: Moliya, 2003.- 172 b.
42. Usmonov M. Donishmandlar axloq haqida. -T.:Fan, 1996.-124 b.
43. Shayxova X. O. Nazarov K. Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot. -T.:Sharq, 1992.-186 b.
44. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig.- T.: Yulduzcha, 1990.-304 b.
45. Yusupov E. Inson kamolatining ma'naviy asoslari.- T.: Universitet , 1998,-98 b.
46. Quvvatov N, G'oziev E. Vatanparvarlik his-tuyg'usini baholash mezonlari. J.:G`G` Xalq ta'limi, 1997, 2-son, B.4-9.
47. Quronov M. Jasorat tarbiyasi.J.:G`G` Oila , 2004, №1,B. 44-47.

48. Hasanboev J., M. Turotova, O. Hasanboeva. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari.-T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,2000.-111 b.
49. Hikmatlarga to'la bu dunyo. Abdusodiq Irisov tarjimasi.-T: O'qituvchi, 1997,189 b.
50. Эльконин Д. Б. Психология игры.-М.: Владос, 1999, -360 с.
51. Eshonqulov N. Hikmatnoma.-T: Cho'lpon, 1992, -396b.
52. G'afurov Z., Siddiqov B.Ma'naviy yuksalish-taraqqiyot omili.- T.: 1992.-127 b.
53. G'afurov G'. Ko'ngil mulki. Badialar. -T.: Adolat, 1996.-199 b.
54. Hakimov R.R. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-T.: O'zPFITI, 2006.-21 b.
55. Hakimov N. Insoniylik ziynati. -T.: Mehnat, 1996. 81b.
56. Hayitov O'. Badiiy kitob o'qiysizmi? "Xalq so'zi" gazetasi, 2002 yil, 14 iyun
125-son.- B. 4.